

Kuch – bilim va tafakkurda

# Marifat

1931-yildan chiqqan boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 1-dekabr, chorshanba № 49 (9374)

Xalq ziyolilari gazetasi

O'qituvchi  
nimani  
o'ylaydi?



“Xalq ta’limi a’lochisi” ko’krak nishoni bilan ko’pchilik ta’lim fidoyilari taqdirlangan. Menga ham 25 yillik faoliyatim va zahmatli mehnatlarimdan so’ng ushbu nishon nasib etdi. Ammo 13 yil bo’ldiki, biror marta ham nishonning nafi tegmadi. Na attestatsiyada, na dars taqsimoti-yu boshqa jarayonlarda bu hisobga olinmagan. Shunday ekan, ta’limda mazkur nishonni ta’sis etishdan nima naf? Shundoq ham oramizda o’z ustida ishlaydigan, ijodkor, tajribali o’qituvchilar ko’p. O’qituvchiga imtiyoz yo’qligiga chidayapmiz. Hech bo’lmasa, natijaga erishib taqdirlangan ustozlarning “hurmati joyiga qo’yilsin”.

Yigitali RAJABOV

Oxirgi paytlar tadbirlarning o’tkazilishi va unga tayyorgarlik darsdan tashqari vaqtda bo’lishi haqida targ’ibotchi va yoshlar yetakchisi bilan bahslashib kelyapman. Ammo ular mendan xafa, direktor va o’rinbosariga ham gapim yoqmayapti. Nima qilaylik, yuqoridan talab qilishyapti, biz ham ishlashimiz kerak-ku, deydi, bechoralar. Yuqoridan kelgan TALABga ko’ra, tadbirlar-u boshqalarning vaqti belgilangan. Nima, yuqoridagilar ta’limga dushmanmi, hayronman. Tadbirlar asosan rasimga tushish, telegramga hisobot joylashtirishdan iborat bo’lib, tumanda, viloyatda birinchi o’rinni olish asosiy maqsad bo’lmoqda...

Abdurazzoq SANGILOV

O'qituvchining kitobxon  
formulyari, afsuski,  
bo'm-bo'sh

3-bet

**YANGI DARSLIK  
YANGILIKKA BOYMI?**

2-3-betlar

Chalalardan asrasin...

Haftaning 0-kuni  
O'QIYDIganlar...

So'ngi saboq

6-bet

7-bet

14-bet





## Mutaxassis minbari

## Yangi darslik

**Tahririyat:** Yangi nashr etilgan darsliklar haqida har doim turlicha qarashlar, fikr-mulohazalar bildiriladi. Amaliyotga joriy etilayotgan yangilikning jarayonga qanday ta'sir o'tkazayotgani muhokama etilishi kerak. Bu kelgusi darsliklar sifati va mazmunini boyitish, xatolarni to'g'rilashga xizmat qiladi. Tahririyatimizga bu borada keladigan har bir maqola va maktublar e'tiborsiz qolmaydi. Muallif fikri xoh ijobiy, xoh tanqidiy bo'lsin, u gazetxonlar hukmiga havola etiladi. Mushtariy uni o'qib xulosa qilishi, qo'shilishi yoki qo'shilmasligi, mutaxassislar esa bahsga hozirlik ko'rishi mumkin. Zero, ta'limga kirib kelayotgan har bir yangilikning ishtirokchilari tomonidan muhokama etilishi, tahlil qilinishi zarur.

2002-yildan buyon boshlang'ich sinflar uchun "Matematika" darsliklariga mualliflik qildim. Bu yil yangi dastur asosida 1-2-sinf darsliklari yaratildi. Yangi dastur asosida yaratilajak darslik sodda va tushunarli, xalqaro ekspertlar boshchiligidagi zamonaviy talablar asosida qayta ishlab chiqilishi haqida ko'p bong urildi. Darslik, haqiqatan, yangiliklarga boy, zamonaviy, avvalgilardan ancha-muncha yaxshi bo'lar ekan degan ishonchda edim. Ammo nashr qilingach uni qo'limga olib, hayratga tushdim. **Chunki unda bironta ham yangilik ko'rmadim.** To'g'ri, misollar, topshiriqlar soddalashtirilgan, ammo darslik bog'cha yoshidagi bolalar uchun emas, maktab o'quvchilariga mo'ljallanganligi inobatga olinmagandek, nazarimda.

Milliy o'quv dasturi ishlab chiqilgani yaxshi, ammo 1-, 2- sinflar uchun nashr etilgan "Matematika" darsliklarida negadir o'sha milliylik ko'rilmadi. Vaholanki, hamma soha bo'yicha milliylikni aks ettirish mumkin edi.

Mutaxassis sifatida darslikdagi bir nechta kamchiliklarni ko'rsatib o'tishga o'zimni haqli deb hisoblayman. Avvalo, darsliklar dizaynidagi e'tiborsizliklarga e'tibor qarataylik. Yangi darslik bichimi avvalgilarga qaraganda katta hajmda (60x84) chop etilgan, ammo ichidagi rasmlar ko'p joyda mayda berilgan va noto'g'ri tanlangan. 1-sinfga qadam qo'ygan o'quvchi ilk bor matematika darsida kitobni qo'lga olib, 1-bobning 1-darsiga diqqat qaratgan hamonoq "Narsalarning to'plamlari" mavzusi asosida berilgan noaniq rasimga duch keladi. E'tibor bering, birinchi dars mustaqillik bayrami kunlari boshlanadi. Shunday ekan maktabga ilk bor qadam qo'ygan o'quvchi maktab ilm olish maskani ekanligi, sinfxonalari hozirgi davr talabarlari darajasida ta'mirlanayotgani, hamma shart-sharoitlar mavjudligi, o'qituvchi, o'quvchi haqida ma'lumotga ega bo'ladigan rasm berilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Shuningdek, ko'p joyda bog'cha bolalarning rasmi qo'yilgan, aslida, maktab darsligiga o'quvchi rasmi qo'yilsa to'g'ri bo'lardi.

Rasmlarning ba'zi o'rinlarda mantiqan noto'g'ri tanlanganiga nima deysiz? Masalan, 1-bobning 2-darsi "Narsalarning o'zaro joylashuvi (ustida, ostida, ichida, orasida)" mavzusi asosida berilgan 4-vazifada "Qaysi hayvon qolganlarning orasida?" deb yozilgan. Savol g'aliz berilgan, qolaversa bu topshiriqda to'g'ri javob sifatida pingvin ko'rsatilgan. Xo'sh, pingvin hayvonmi yoki qush?.. Shuning o'rniga o'quvchini chalg'itmaslik uchun uy hayvonlari tasvirlansa bo'lardi edi.

1-bobning 3-darsi "Narsalarning o'zaro joylashuvi (yuqorida, pastda, oldida, orqasida)" mavzusi asosida berilgan 2-vazifada esa "it - uychaning oldida" deb yozilgan. Aslida, rasmda it uychaning yon qismida turibdi.

Nafaqat rasmlar, balki, topshiriq shartlari ham ba'zi o'rinlarda mantiqan to'g'ri berilmagan. Masalan, 1-bob 10-dars "Narsalarni xossalari bo'yicha to'plamlarga ajratish" mavzusi asosidagi 1-vazifaga e'tibor bersak, 3 ta narsa yakka holda berilgan, demak ular to'plamlarga kirmaydi. Rasm tagida esa quyidagi gaplar yozilgan: "Rasmdagi asboblarning materiali bir xil. Ular qanday vazifani bajaradi?" Berilgan savol matematika faniga umuman to'g'ri kelmaydi. Bu o'rinda 1-sinfda o'tiladigan darsliklardan to'plam qilish mumkin edi yoki mevalar, sabzavotlar, gullar, o'yinchoqlardan, qo'ying-

ki, borliqdagi hamma narsalardan to'plam hosil qilish mumkin.

2-bob 2-dars "1 dan 10 gacha bo'lgan sonlarning o'qilishi va yozilishi" mavzusida ham 1 soni mavzusi asosida berilgan 3-vazifada "Qaysi biri bitta?" deb savol berilgan. Bu vazifada 2, 3, 4 soni bilan hali tanish bo'lmaganlari uchun faqat 1 ga xos bo'lgan narsalar berilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Shu o'rinda darslik mualliflariga savol bergim keldi. Nega "+", "-", "=" belgilarini 2-bobning 15-, 16-, 17-darsga qoldirdingiz? Agar dasturda shunday berilgan bo'lsa, unda dasturga ham o'zgartirish kiritish kerak. O'ylab ko'ring, o'quvchi 10 gacha bo'lgan son bilan tanishib bo'lgach unga "+", "-", "=", belgilarini tanishtirish biron g'alati emasmi?! Axir 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10 sonlari qo'shish amaliyoti hosil bo'lmaydi. 10 ta 1 ni qator qilib terib qo'ygan bilan hech qanday natija bo'lmaydi. Shunday ekan "+", "-", "=" belgilarini 10 sonini o'tib bo'lgandan keyin emas, 2 soni bilan birgalikda tanishtirish kerak.

Darslikda berilgan vazifalar savollarida g'aliz gaplar ko'p uchraydi.

2-bob 11-dars

1-vazifa:




"Doirachalar nechta?" deb savol qo'yilgan. Savolni boshqacharoq qilib o'zgartirilsa aniqroq bo'lar edi. Masalan, "Oldingi darsda 9 soni bilan tanishgan edik, katakchalar ichida 9 ta doiracha bor edi, qarang, bola-jonlar, katakchalar ichida doirachalar bormi?"

2-vazifada "Qutidagi shirinlik nechta?" deb, 2 ta qutining rasmi berilgan. Aslida, "1-qutida nechta shirinlik bor edi, qutidan shirinliklar olib yeyilgandan so'ng nechta shirinlik qoldi?" deyilsa aniqroq bo'lardi.

2-bob 12-dars "10 soni" mavzusi.

1-vazifada



"Doirachalar nechta, bo'sh kataklar-chi?" deb yozilgan. Bu 5 ga 5 ni qo'shish bo'lib qolgan, shuning uchun bir qator qilib berilsa aniq bo'lardi. "Bo'sh katakchalar-chi?" deb savol qo'yilgan, ammo bo'sh katakchalarlarning o'zi yo'q, bu bolani chalg'itadi.

3-vazifada ham "Qaysi biri ko'proq?" Qaysi biri kamroq?" deb savol berilgan. U yerda yashil, qizil, ko'k rangdagi doirachalar turibdi, savol nomlari bilan berilsa aniq bo'lardi.

2-bob 20-dars "Hafta kunlari" mavzusining 1-vazifada "Oldin nima edi? Keyin-chi?" deb yozilgan. Berilgan savolga aniqlik kiritish kerak, savolning o'zi tushunarsiz. Tandir rasmi va undan uzilayotgan non haqidagi tasvir nimani bildiradi? Bu yerda hafta kunlarini tasvirlovchi rasm bo'lishi kerak emasmi?! Shuningdek, 3-bob 14-dars 4-vazifada "Topamiz: eng uzun emas, eng qisqa emas" deb topshiriq berilgan. Nega o'quvchilarga noaniq, tugallanmagan shaklda savol berilgan? Bu jazzi o'g'il-qizlarning natqi shakllanmay qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

3-bob 1-dars. "10 ichida qo'shish va ayirish. Qo'shish amaliyoti tarkibiy qismlari" mavzusi asosi-

da berilgan rasm va yozuvlar to'g'ri joylashtirilmagan. Umuman, darslikning hamma sahifasi strelkaga to'lib ketgan. Bu 1-sinf o'quvchilari uchun qiyinchilik tug'diradi. Birinchi qo'shiluvchi 2, ikkinchi qo'shiluvchi 1, chiqqan natijasi 3 - yig'indi ekanligini aniq tushuntirish kerak.

3-bob 3-dars. "10 ichida qo'shish" mavzusidagi 2-vazifada "Hisoblaymiz" deb yozilgan va misollar quyidagi ko'rinishda berilgan, ammo "+" belgisi 2 ta kvadrat o'rtaiga tushmagan.

$$\begin{array}{r} 4 \\ + 2 \\ \hline \square \\ \square \end{array} \quad \begin{array}{r} 3 \\ + \square \\ \hline \square \\ \square \end{array}$$

3-vazifada "Bo'sh kataklarni to'ldiramiz", deb yozilgan. Bu vazifa 10 ichida qo'shish mavzusiga taalluqli emas, balki 10 sonini hosil qilishga kiradi. 10 ichida qo'shish mavzusini yoritish uchun 2 qator oddiy misol berish mumkin edi.

3-bob 14-dars. "Narsalarning uzunligini o'lchash" mavzusidagi 1-vazifada 1 ta flomaster uzunligi 7 ta qisqich uzunligiga teng deb yozilgan. O'quvchilarga "qisqich" degan narsa tushunarsiz bo'ladi, har doim ham narsalar qisqich bilan o'lchanmaydi, mavzuga hayotiy yondashish maqsadida chizg'ich bilan tanishtirib, undan foydalanishni ko'rsatib berish kerak edi.

4-bob 1-dars. "Geometrik shakllar" mavzusi bilan tanishtirishda "Qanday shakllarni ko'ryapsiz?" degan savol berilgan. Dostkada hamma shakllarning rasmi bor. O'quvchilar uchburchak, to'rtburchak bor, deb aytishi uchun avval shu darslikning 52-, 53-, 54-, 55-, 56-, 57-, 58-sahifalaridagi mavzular bilan oldinroq tanishishlari kerak bo'ladi. Undan keyin qanday shakllarni ko'rayotganligini aytib berishlari mumkin.

5-bobning 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11-, 12- darslari 11 dan 20 gacha bo'lgan sonlar mavzulari 11 soni, 12 soni, 13 soni, 14 soni ..... 20 soni bilan tanishtirish bog'chaning tayyorlov guruhlariga o'tilayotgandek soddalashtirib berilgan. Bunda har bir mavzuga doir sodda masala, 2 qator misol berish mumkin edi, 1-sinf o'quvchisiga  $10 + 4 = 14$  yoki  $10 + 9 = 19$  bilan chegaralanib qolmasdan, faollikni oshirish maqsadida 14 hosil bo'lishi uchun yana nima qilish kerak? Masalan:

14 bu 10 bilan 4 ning yig'indisi;

14 bu 11 bilan 3 ning yig'indisi;

14 bu 12 bilan 2 ning yig'indisi;

14 bu 13 bilan 1 ning yig'indisidan iborat ekanligini ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntirish mumkin edi.

3-bob 2-darsi "Ayirish amaliyoti tarkibiy qismlari" mavzusida har bir sonning vazifasi (kamayuvchi, ayiruvchi, ayirma) uning yoniga yozilishi kerak edi. Darslikda esa bunday izoh berilmagan, strelkalar yordamida tushuntirilgan. Strelkalar 1-sinf o'quvchisiga yordam berishdan ko'ra, ko'proq tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi.

5-bob 4-darsning 2-vazifasida, 5-bob 8-darsning 2-vazifasida "kam, ko'p"ga doir misol berilgan, shu mavzuni o'quvchiga tushuntirishda taqqoslashga doir misollar berish mumkin edi. Masalan:

$15 > 14$  15 soni 14 sonidan 1 ta ko'p.

$19 < 20$  19 soni 20 sonidan 1 ta kam.

$18 = 18$  18 soni 18 soniga teng, deb tushuntiriladi.

6-bob 1-dars. "20 ichida sonlarni o'nlikdan o'tib qo'shish" mavzusi. 2-vazifadagi rasm noaniq, raqamlar o'rab tashlangan, "O'zing top" degan ma'noda bo'sh kataklar qo'yib tashlangan, 3-vazifa ham tartibsiz. Mavzuning o'zi murakkab, shunday ekan, misollar quyidagi ko'rinishda berilsa, o'quvchilar uchun tushunarli bo'lardi:



# yangilikka boymmi?

$$\begin{array}{ccc} 9+2=11 & 9+3=12 & 8+3=11 \\ \swarrow \searrow & \swarrow \searrow & \swarrow \searrow \\ 9+4=13 & 8+4=12 & 7+4=11 \\ \swarrow \searrow & \swarrow \searrow & \swarrow \searrow \\ 9+5=14 & 8+5=13 & 7+5=12 \end{array}$$

6-bob 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-darslarda berilgan topshiriqlarda chalkashliklar, strelkalar ko'payib ketgan, rasmlar mayda, xira berilgan.

6-bob 8-dars. "Sonlarni o'nlikdan o'tib qo'shish" mavzusidagi 1-vazifada "Hisoblash qanday bajarilgan?" deb yozilgan, so'ng misollar quyidagicha berilgan:

$$\begin{array}{r} 4 \\ 4 \\ +6 \\ \hline 14 \\ 4 + \boxed{\phantom{0}} = \boxed{10} \\ +4 = \boxed{\phantom{0}} \end{array}$$

Bu misol ustun shaklida berilsa, oldin 4 ga 4 ni qo'shib, so'ng 6 ni qo'shish kerak emasmi? Ustun shaklida yozilgan misolni pastki qismidan 4 ga 6 ni qo'shib, keyin yuqoridagi 4 soni qo'shilmasa kerak, chunki  $4 + 6 = 10$  deb berilgan. Misolning yechilishiga aniqlik kiritish kerak. 10 va 14 soni ikki xonali bo'lgani uchun 2 ta katak berish lozim.

Darslikda tushuntirish kerak bo'lgan joyda hech narsa yozilmagan, keraksiz joyda tushuntirish berilgan. Masalan, 6-bob 18-dars 1-vazifasida nima qilish kerakligi yozilmagan. Bu vazifa sonlarni o'nlikdan o'tib ayirish mavzusining boshlanishiga berilgan, ammo topshiriq matni yozilmagan. 2-vazifada "Namuna asosida hisoblaymiz", deb quyidagicha misol keltirilgan.

$$16 - 2 = \quad \quad \quad 16 - 2 = 14$$

Yozilgan misolga e'tibor bering, aslida:

$$16 - 2 = 14$$

deb yozilishi kerak, chunki o'nlar o'nlar xonasi tagiga yozilishi zarur. Demak, 16 dan 2 ni ayirish degani bu dastlab bir xonali son 6 dan 2 ni ayirib, 10 ga chiqqan natijasini qo'shish kerak degani.

7-bob 4-dars "Qavslar" mavzusi. Qavslar yangi mavzu bo'lgani uchun 7-bob 5-darsning 1-vazifasini 4-darsga olib o'tish kerak. Dastlab misollar yordamida tushuntirilib, so'ng qoida bo'sh kataklar bilan tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Misolalar bilan tushuntirib bo'lgandan so'ng "Amallar tartibi qanday yozilar ekan?" deb bo'sh kataklarga sonlarni qo'yib bajarish qoidasi bilan tanishtirilsa, o'quvchilar uchun tushunarli bo'ladi.

7-bob 8-dars 1-vazifada hech qanday topshiriq berilmagan, iloji bo'lsa 7-bob 9-dars 1-vazifa olib o'tilsa o'quvchilar uchun tushunarli bo'lar edi. Chunki bu murakkab mavzu bo'lgani uchun ifodalarning yechilishidagi 1 ta misolni namuna qilib kvadratlarsiz berish lozim.

8-bobning 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-darslari "21 dan 100 gacha bo'lgan sonlar" mavzusi asosida berilgan vazifalar aralash-quralash bo'lib ketgan. O'quvchilarni chalg'itadigan tomonlari ko'p, kubikni kvadratdan ajratib bo'lmaydigan mayda rasmlar berilgan.

Mavzuga aniqlik kiritish maqsadida 21 dan 29 gacha, 31 dan 39 gacha, 41 dan 49 gacha, 51 dan 59 gacha, 61 dan 69 gacha, 71 dan 79 gacha, 81 dan 89 gacha, 91 dan 100 gacha bo'lgan sonlar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish uchun har bir mavzuga alohida-alohida vazifa ajratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir va-

zifaga qo'yilayotgan savol tushunarli bo'lishi kerak. Masalan, 8-bob 2-darsdagi 2-vazifada "Nehta o'nlik hosil bo'ldi?" deb savol qo'yilgan, vaholanki, u yerda birliklar xonasi ham bor. 21 dan 100 gacha bo'lgan sonlar mavzusidagi hamma rasmlar mayda, xira, tushunar-siz. O'quvchilarni qiziqtiradigan, diqqatini tortadigan rasm berilsa, matematik o'yinlardan foydalanilsa nur ustiga nur bo'lar edi.

Ikki xonali songa bir xonali sonni qo'shish, ikki xonali songa ikki xonali sonni qo'shish, ikki xonali sondan bir xonali sonni ayirish, ikki xonali sondan ikki xonali sonni ayirish, 100 dan bir xonali sonni ayirish mavzulari aralash bo'lib ketgan. Masalan: 9-bob 10-dars "100 ichida qo'shish va ayirish" mavzu nomi yoniga "100 dan bir xonali sonni ayirish" deb yozish kerak.

9-bob 10-dars 1-vazifada "Hisoblash qanday bajarilgan?" deb yozilgan. Maydalashtirib berilgan rasm tagida  $100 - 7 = 93$  va yon tomonida

$$90 + (10 - 7) = \boxed{\phantom{00}}$$

ko'rinishidagi sxema berilgan. Bu ko'rinishda berilgan misol o'quvchilar uchun murakkab, shunday ekan 100-7 ning yechilishi quyidagicha tushuntiriladi: 100 sonidan 7 ni ayirish kerak. 100 bu 10 ta o'nlik, shundan bitta o'nlikni ajratib olamiz. Bitta o'nlikdan yettita birlikni ayirsak, uchta birlik qoladi. To'qqizta o'nlik va uchta birlik 93 bo'ladi, deb qoida ishlab chiqiladi va tushuntiriladi.

9-bob 13-dars. "Ikki amalli masalalar".

Bu mavzuga o'tishdan avval oddiy bir amalli masalalar berib borish kerak edi. 8-, 9-bobni bittalab varaqlab chiqing, bitta ham oddiy masala topolmaysiz. 9-bob 13-dars 1-vazifada berilgan masala murakkab, chunki masalada ikki xonali songa ikki xonali sonni qo'shishga to'g'ri keladi. Yangi mavzu bo'lgani uchun masalaning sharti bilan yechimini berish kerak edi. Ya'ni:

- 1-tup anor butasidan - 16 dona } ? dona  
2-tup anor butasidan - 2, 14 dona ko'p

Yangi mavzu murakkab bo'lgani uchun sxema o'miga yechim berish kerak:

$$16 + 14 = 30 \text{ dona ikkinchi tupdan olingan anor}$$

$$30 + 16 = 46 \text{ dona ikkala tupdan olingan anor}$$

Rasmi bilan berilsa undan ham yaxshi bo'lardi.

10-bob 6-, 7-, 8-dars "Sonlar, shakllar va rasmlar ketma-ketligiga doir masalalar" deb nomlangan. Unda "Qaysi son tushirib qoldirilgan? Ketma-ketlikni davom ettiramiz. Qanday shakllar tushib qolgan?" kabi topshiriqlar berilgan, ammo bitta ham masala berilmagan.

Nega darslikda takrorlash, qo'shimcha topshiriqlarda ham masala berilmagan? Masala o'quvchini mantiqan fikrlashga, bahslashishga, o'ylashga undaydigan eng kerakli usul edi-ku.

1-sinfda o'tiladigan mavzular o'yin orqali berib borilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki o'quvchilar o'yin jarayonida hayotdagi elementar narsalarni o'zlashtirib olganlarini sezmay qoladilar.

Xullas, Milliy dastur asosida yaratilgan yangi 2-sinf "Matematika" darsligida kamchiliklar bisyor. Ayniqsa, har bir bob uchun bir betlik rasmlar behuda joy egallagan. Rasmni sahifaning yarmiga joylashtirib, o'tilgan mavzuni takrorlash uchun topshiriqlarga joy ajratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

**Hurmatli pedagoglar! Yangi darslikni eski "Matematika" darsligi bilan solishtirib, taqqoslab ko'ring.** Har holda eski darslik zamon talabiga mos, deb topilmagan bo'lsa-da, unda matematik va topishmoqli, ertak asosida tuzilgan, didaktik, muammoli, harakatli o'yinlar berilgan edi. Yangi darslikda ham boshqotirma, krossvord, sangokulyardan o'rinni foydalanilsa bo'lardi.

Nabiya ABDURAHMONOVA

## Aks sado

Har gal kutubxona haqida so'z ketganida quyidagi rivoyat yodimga kelaveradi. Buyuk tabiiy Ibn Sino podsho Ibn Mansurni davolab, sog'ligini tiklaydi. Podsho xursand bo'lganidan unga davlatining ma'lum qismini bermoqchi bo'ladi. Ammo Ibn Sino buning o'rniga saroy kutubxonasidan foydalanishga ijozat so'raydi. Darhaqiqat, kutubxona qanday zaruriy, aziz dargoh.

## O'qituvchining kitobxon formulyari, afsuski, bo'm-bo'sh!

"Maktab kutubxonachisi mavqeyi qachon oshadi?" maqolasida muallif har bir maktabda uchraydigan muammolarni qalamga olgan.

Tashqaridan qaragan kishi kutubxonachining vazifasi yengil, faqat kitob o'qib o'tiradi, deb o'ylaydi. Aslida esa, o'zim ko'p guvoh bo'lganman, kutubxonachiga katta mas'uliyat yuklanadi. U o'qituvchi, o'quvchi, ota-onalar bilan doimiy va bevosita aloqada bo'lib turadi. Ayniqsa, sentabr-oktabr oylarida kutubxonachining bosh qashlashga ham vaqti bo'lmaydi. Bir qarasangiz ijara darsliklarini sanab o'tirgani, bir qarasangiz bankka pul topshirishga ketayotganini ko'rasiz.

Maktabimizdan bu yil jami 51 mln 180 ming 600 so'm to'lov amalga oshirildi, - deydi kutubxona mudirami Maxsudaxon Po'latova. - Albatta, bu oz summa emas. Pulni yig'ib, bankka topshirib olishning o'zi mashaqqat. Bundan tashqari, yuqoridan tekshiruv bor, deyishsa bormi, bechora kutubxonachi o'qituvchilarga yalinishga tushadi. "O'qigan badiiy adabiyotningizni ro'yxatga tushirib qo'yinglar(mabodo o'qigan bo'lsa)", deb o'qituvchilar uchun kitobxon formulyari yuritiladi, lekin ichi bo'sh... Bunga nima deysiz? O'qituvchining kutubxonaga kirib badiiy adabiyot olib o'qish uchun vaqti yo'q. Natijada, kutubxonachi yuragi ezilib, kitobxon formulyarini "osmondan olib" to'ldirib qo'yadi.

Maqolada ko'rsatilgan muammolarning ayrimlari bizda ijobiy hal etilgan. Kutubxonamizda ikki nafar xodim faoliyat yuritadi.

- Haqiqatan ham, avvallari maoshim juda kam edi. Yangi o'quv yilidan ko'tarildi. Vazirlar Mahkamasining 831-qarori asosida ustama ham o'lyapman. Kutubxonamizda badiiy kitoblar kam, buning ustiga o'qituvchilarimiz kirishmaydi. Qani endi badiiy kitoblar ko'p bo'lsa, o'qituvchilarimiz qo'llarida kitob bo'lsa, - deya kuyinadi kutubxonachimiz Maxsuda opa.

Ajabo, biz o'qituvchilar kitob o'qish uchun kutubxonaga kirmasak, qanday qilib o'quvchimizni ma'naviyatga, mutolaaga boshlaymiz? Maktab kutubxonalarida mutolaa muhitini shakllantirishga o'qituvchilar ham bevosita aloqador. Bo'sh qolsak internetga, ijtimoiy tarmoqqa o'zni uramiz. Hatto gazeta va jurnallarga ham qiziqmay qo'ydik. Obuna mavsumi boshlandi. O'z istagimiz bilan sevimli nashrlarimizga obuna bo'laylik, kutubxona ham bizning sevimli maskanimizga aylansin!

Rahbaroy MELBOYEVA,  
Uchko'pri tumanidagi  
5-maktab o'qituvchisi





## Tavsiya

# Mutolaa va ijod

(Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilar faoliyatini tashkil qilishda "Sim-sim... Mutolaa sirlari" va "Ijod falsafasi" kitoblaridan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma)

Xalq ta'limi vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi va Jurnalistlar uyushmasining 2021-yil 20-aprelda qabul qilingan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimini joriy etish to'g'risida"gi qarori o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini qo'llab-quvvatlash, yosh iste'dodlarni kashf etish borasida qo'yilgan ildam qadamlardan biri bo'ldi.

Bu mas'uliyatli ishga shoirlar, yozuvchilar, jurnalistlar, qolaversa, adabiyotshunos olimlar, ona tili va adabiyot o'qituvchilari, umuman, ijodkorlar jalb etildi. Ular faoliyat boshlagach maktablarda kitobga, umuman, adabiyotga bo'lgan munosabat anchayin o'zgardi.

Maktablarda tashkil etilgan adabiy to'garaklardagi har bir mashg'ulotga o'quvchilar katta ishtiroq bilan qatnashmoqda. To'garakda ma'lum standartlarni o'zlashtirish ko'zda tutilmaydi, balki o'quvchilar adabiyot fani yuzasidan ta'lim standartlarida belgilanganidan ko'ra ko'proq bilim va ko'nikmalarni egallaydi.

Qarorda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, yaqinda ushbu to'garaklarning dasturi tuzildi. U "Mutolaa", "Ijod" va "Ijod laboratoriyasi" deb nomlangan 3 bo'lim va 72 soatdan iborat. Quyida ushbu dastur haqida ma'lumot beramiz.

"Mutolaa" bo'limidagi mashg'ulotlar o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Bo'ljak ijodkor, avvalo, kitob mutolaasi borasidagi mavjud tajribalarini o'rganishi hamda shu asosda o'zbek va jahon adabiyoti dardonalari bilan atroflicha tanishib chiqishi talab qilinadi.

Bu borada jahon mumtoz adiblari ning kitob va kutubxona, asar o'qish va uqish mavzularida yozgan esselarini o'qib-o'rganish tavsiya qilinadi. Mutolaa haqida Gytotening quyidagi mulohazalari o'rindir: "Bu sodda odamlar kitob o'qishni o'rganishlari uchun qanchalik ko'p vaqt va kuch kerakligini bilmaydi. Men uchun bunga sakson yil kerak bo'ldi, hali-hamon maqsadimga erishdim, deb dadil aytolmayman", deb yozgan edi buyuk shoir Ekkmanga maktabida.

Birinci bo'limdagi mashg'ulotlar uchun "Sim-sim... mutolaa san'ati" to'plami manba sifatida xizmat qiladi. Unda Jon Raskin, Marsel Prust, Amin ar-Rayhoni, Xose Ortega-i-Gasset, Jek London singari o'ttizga yaqin ingliz, ispan, rus, fransuz, olmon, yapon va boshqa xalqlar adabiyoti vakillari – mashhur yozuvchi hamda faylasuflarning kitob va kitobxonlik haqidagi esselari jamlangan. Ularning aksariyati qisqa va londa, shaxsiy tajribalar asosida yozilgan. Shuningdek, katta asarlardan mavzuga tegishli parchalar tanlab olingan. Muhimi, esselar o'ziga xos betakror va bir-birini to'ldiradi.

Masalan, mashhur nemis yozuvchisi Yohannes Bexer "Kitob o'qishdan mudao ne?" nomli essesda yozadi: "Ki-

tob o'qishni o'rganish kerak... Mutolaa – san'at, uni nafaqat kitobxonga, hatto yozuvchiga, aynan muallifning o'ziga-da o'rgatish darkor. Kimki mutolaa san'atini egallay bilsa, bir asarni o'qiyotganda boshqa ko'plab asarlar mazmunini yodga oladi: qo'lidagi kitobda tasvirlangan qiyofalar boshqa asarlardagi shunga o'xshash qiyofalarni xayolda tiklashga va ularni bir-biriga qiyoslashga undaydi".

Yaxshi kitob o'qishning samarasini livanlik faylasuf Amin ar-Rayhoni "Mirishkorlar uchun urug'lik donlar" essesinde aniq-tiniqu ta'riflab beradi: "Eng yaxshi va qimmatbaho kitoblar shunday bo'ladiki, ularni o'qib chiqqaningdan keyin avvalgi holingcha qoldirmaydi; bu kitob senda yangi olijanob tuyg'ularni qo'zg'atadi, buyuk intilishlarga rag'bat beradi, yangi olijanob fikrlar tug'iladi; bu kitob seni turgan joyingdan siljitadi va atrofingdakilarni ham harakatga keltiradi".

Misrlilik yozuvchi Abbos Mahmud Al-Akkad: "Kitoblar – xuddi odamlarga o'xshaydi. Ularning orasida nufuzli janob ham, takabbur yolg'onchi ham, oddiygina sodda-go'llar ham, tez-tez yo'ldan adashadigan, ammo hammani tushunadigan odamlar ham bor. Ular ichida murtadlarni ham, omilarni ham, xushfe'llarni ham, sayoqlarni ham uchratasiz. Bu dunyoga ularning hammasi sig'adi", deb yozadi. Bu fikrlardan kitobni tanlab o'qish kerak ekan, deya xulosa chiqaramiz.

Kitobxonlik ko'p kitob o'qiganlik bilan o'lchanmaydi: "Sanoqli o'lmas asarlarni o'qib, uqib olgan ayol har kuni uchradan yangi kitobga ko'z yugurtirib, tartibsiz o'qiydigan parishonxotirlardan ko'ra o'zini bilimli hisoblashi mumkin", deb yozadi Andre Morua "Kitob qanday tanlanadi" nomli essesda.

Ushbu kitob yakunida "Kitobxonlik: muammo va yechimlar" nomli maqolada kitob o'qimaslik oqibatida dunyo mamlakatlarida yuzaga kelgan muammolarning (intellektual savodsizlik, kitob inqirozi) oldini olish borasida rivojlangan davlatlarda ko'rilayotgan chora-tadbirlar xususida to'xtalib o'tiladi.

Demak, birinci bo'limda "Kitob qanday o'qiladi? Kitobning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati qanday? Kitob qanday tanlanadi? Kimni chinakam kitobxon desa bo'ladi? Shaxsiy kutubxona qanday tuziladi?.." singari masalalar o'rta tashlanadi. O'zini kitobxon sanaydigan har bir ziyolining o'ziga o'zi va unga boshqalar tomonidan beriladi-

gan bu savollarga javob berish uchun ham o'qish, uqish kerak bo'ladi.

Ikkinchi – "Ijod" bo'limida ijodkor shaxsi, uning shakllanish jarayoni, ijod mashhaqqatlari haqida tushuncha berish ko'zda tutilgan. Ya'ni, ulug' adiblar o'zining shakllanish bosqichlari haqida o'zlari hikoya qilib beradi.

Dasturning "Ijod" va "Ijod laboratoriyasi" bo'limlari uchun "Ijod falsafasi" deb nomlangan kitob asosiy manba vazifasini o'taydi. Bu kitobda o'zbek va jahon adiblarining ijodiy tajribalari, ayrim asarlarining yozilish tarixi haqida hayotiy, qiziqarli hikoyalar jamlangan.

Har qanday taraqqiyotning yagona yo'li – ijod, yaratuvchanlik. Ilm-fan, madaniyat, umuman, barcha sohalar xitiro-yu kashfiyotlar yo'ldan yuksalib boradi. Albatta, o'z kasbiga muhabbat va peshona teri – halol mehnatgina ushalmas ozrularni ro'yogga chiqaradi.

Adabiyot dunyosi ham shunday. Ammo biz sevgan bu dunyo chek-chegarasiz, hayotning ayrim bir sohasini emas, balki tabiat ham jamiyatning barcha jabhalarini qamrab oladi: ilm-fan yutuqlaridan tortib turmush ikir-chikirlarigacha, hayvonot dunyosidan nabotot olamigacha, olis o'tmishdan buyuk kelajakka. Shu bois ham kitoblar o'quvchiga hayot sirlarini ochadi.

Badiiy ijodning negizi, shubhasiz – iste'dod! Ammo unga ham e'tibor kerak. Ilk bor ko'liga qalam tutib, birinchi she'rini yozgan o'smiring shodligini tasavvur qiling. U zavq-shavvqa to'lib, ilhom parisining marhamati bilan ko'nglidagini oq qog'ozga tushirgach, dunyodagi eng baxtli insonga aylanadi. Albatta, aksariyat hollarda ilk she'rlar sevimli shoirlar ta'sirida, taqlid tarzida paydo bo'lishi mumkin. U to'lib-toshib, kuniga uch-to'rttalab yangi mashqlar qoralashi mumkin. Qani endi, mana shu zavvqa yarasha she'r ilmini egallagan, ustozlar tajribasini o'rgangan bo'lsa. U hali oldida turgan ijod mashhaqqatlari va dovonlarini tasavvur ham qilolmaydi. Afsuski, odatda yoshlar ijod sirlarini o'rganishga ko'pda e'tibor bermaydi.

"Ijod falsafasi" to'plamiga kiritilgan milliy hamda jahon adabiyoti namoyandalari maqola va esselari vositasida talant haqida emas, balki uni ro'yogga chiqarish omillari haqida tushuncha beriladi. Toki, yoshlar ijod sirlarini erta-roq o'rgansin, adabiyot olamining boshi berk ko'chalarida adashib yurmasin, chinakam ilhom zavqi va taqlidni farqlay olsin, iste'dodining qadriga yetsin.

Tadqiqotchilar fransuz adibi Onore de Balzakning "Inson komediyasi" turkumini yaratish uchun kuniga o'n besh soatlab ishlab, yuzdan ortiq roman va qissalar yozganini, buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy "Urush va tinchlik" epopeyasini takomiliga yetkazguncha asarning o'n beshdan ortiq variantlarini qoralagani, qayta-qayta tahrirdan o'tkazganini ta'kidlaydilar. O'z davrini kitob-

ga ko'chira olgan bu ikki ulkan adibning chekkan zahmatlarini tasavvur qilish qiyin.

"Original asar yozish – faqat mehnat degani, buning uchun manglay teri to'kish kerak bo'ladi. Hamma ishning negizi – halol mehnat", degan edi Mirtemir domla.

Har bir ijodkorning ko'ngliga yaqin mavzulari, sevimli qahramonlari bo'ladi. Lekin qalam ahlini birlashtirib turuvchi ayrim jihatlar borki, ularni o'qib-o'rganish yoshlar uchun juda muhim. Jumladan, adabiy tur va janrlardan o'z o'rinda foydalanish, yozuvchining hayot falsafasi, yangi asar yozishga tayyorgarlik jarayoni, so'zga munosabati, asar tili, zamon va makon masalalari, personajlar qiyofasini yaratish va hokazo.

Ushbu to'plamda shu singari masalalar yuzasidan bevosita badiiy asar mualliflari – yozuvchilar sig'ga o'z tajribalarini so'zlab beradi.

Chindan ham, sevimli adibimiz Abdulla Qodiriy o'zining mashhur tarixiy asarlarini qanday yaratgani, Oybek "Navoiy" romanini qanday yozgani yoxud Mirtemir, Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, Shukur Xolmirmirayev, Muhammad Ali kabi ustoz adiblarimizning o'ziga xos ijod laboratoriyalarini bilish har bir kitobxon uchun qiziq va ahamiyatlidir.

Asarlar ustida qanday ishlashga ko'charkan, Abdulla Qodiriy shunday deydi: "Men bir asar yozishdan avval shu yozmoqchi bo'lgan narsam haqidagi materiallarni puxta o'rganib chiqaman. Men biror joy to'g'risida asar yozmoqchi bo'lsam, o'sha joyni avval necha bor ko'rganim esam-da, yana borib tekshirib, yaxshiroq o'rganib kelaman.

Masalan, "O'tkan kunlar"ni yozish chog'ida Marg'ilong'a borganimda, bir ko'chadan o'tayotib, namozshom mahalida dog' qilinayotgan zig'ir yog'ining hidi burnimga urildi, men buni esda tutib qolishga a'rishdim. "O'tkan kunlar"ning bir joyida shu kichkina detal kirgizilganida, berilayotgan tasvirming yana ham odam ishonarlik bo'lib chiqq'ani esimda".

"Mehrobdan chayon" romanining yaratilish tarixi haqida to'xtalar ekan, buyuk yozuvchi shunday deydi: "O'tkan kunlar"ga material to'plaganimda, ba'zan qo'limga qiziq tarixiy materiallar tushsa ham davr yo boshqa jihatdan uning "O'tkan kunlar"ga to'g'ri kelmasligini sezardim. Shunday bo'lsa-da, ularni alohida yig'ib borardim. Shu yo'sin Xudoyor hayotiga doir anchagina ma'lumotlar to'planib, "O'tkan kunlar"ni bitirgan chog'larimda o'rmini "Mehrobdan chayon" tashvishi egallagan edi".

"Mehrobdan chayon"ni yozishga tayyorlandim. Hamma narsa taxt: romanning shakli, qahramonlari, voqealari, asarning qanday xotimalanishi ko'z oldimdan davra olib o'tib turardi. Ammo ishni qayerdan, nimadan boshlash, davraga qanday kirib borish



masalasi meni o'ylatar, qiynar edi, bir kun tush ko'rdim. Go'yo, Mahmud domla go'sht, piyoz ko'tarib machitdan chiqib kelar va uzoqdan meni o'ziga imlab, qo'lidagilarni ko'rsatar edi. Uyg'onib ketdim. Ajablanib, xayol surib yotdim va birdan quvonib ketdim. Chunki ipning uchi topilgan, romanning qanday – qayerdan boshlanishi aniqlangan edi...”

Kitobda she'r yozish sirlari sevimli shoirimiz Mirtemir va amerikalik romantizm oqimi vakili Edgar Po tajribalari asosida batafsil yoritib berilgan.

“Ijod falsafasi” to'plamining ikkinchi qismida jahon adabiyotining yirik vakillari Edgar Po, Jek London, Herman Hesse, Genri Miller, Akutagava Ryunoske, Jorj Oruel, Efim Etkind, Umberto Ekolarning yozuvchilik, yozuvchidan talab qilinadigan eng muhim xususiyatlar, ularning nima uchun va qanday yozishlari haqidagi qimmatli fikrlari kitobxonga qulay usulda bayon qilingan.

“Men izchil ishlash zarurligiga ishonaman va hech qachon ilhom kelishini kutib o'tirmayman”, deb yozadi Jek London.

Shuningdek, mashhur italyan adibi Umberto Eko “Men qanday yozaman?” sarlavhali essesinde shunday deydi: “Kitoblar faqat kitobxonlar uchun yoziladi. O'zim uchun yozayman, deb ont ichgan yozuvchi sizni surbetlarcha aldaydi. Uning qay darajada dahriy ekanini o'ylashning o'zi dahshatli. Hatto bu so'z mutlaq dunyoviy ma'nosida aytilganda ham...”

Britaniyalik baron Jon Lebbok ingliz adabiyoti haqida shunday deydi: “Biz dunyoga buyuk shoirlar, donishmandlar, olimlar yetkazib berganmiz va yetkazib bermoqdami. Boshqa hech bir xalqda bunchalik yorqin, olijanob adabiyot yo'q. Adabiyotimiz iqtisodiyotimizdan ko'ra boyroq, harbiy kuchlarimizdan ko'ra qudratliroq. U Vatanimizning chinakam g'ururi va shon-sharafi, uni madh etgan so'zlarning hech qaysisi uning o'zi qadar yuksak bo'la olmaydi”.

Biz ham o'zbek adabiyoti shunday yuksalishi uchun kurashishimiz kerak.

#### Mashg'ulotlar samarali bo'lishi uchun qo'shimcha tavsiya qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarda ma'lum bir asarni muhokama etish(jumladan, o'quvchilarning mashqlarini tahlil qilish), asarlar asosida yaratilgan kinokartinalarni ko'rish va asarga taqqoslash;

- o'quvchilarni ijodkor shaxsi bilan yaxshiroq tanishtirish maqsadida o'zbek adabiyoti namoyandalarning uy-muzeylariga borish, shuningdek, viloyatlardagi adabiyot muzeylarida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish;

- dasturda mavzu bo'yicha esse va maqolalar ro'yxati alohida belgilab berilgan. Talabga ko'ra qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish mumkin;

- mashg'ulotlarga shoir-yozuvchilar, kitobxonlarni taklif etish;

- ayrim mashg'ulotlar ma'lum bir kitobning muhokamasi tarzida o'tkazilsa, maktabda adabiyot ta'limi dasturiga kiritilgan Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom singari yozuvchilarning ijodidan namunalar olinsa, barchaga tushunarli bo'ladi, qolaversa, maktab o'quv dasturi yanada mustahkamlanadi.

Humoyun AKBAROV

## Jarayon

Yoshlik chog'larim kutubxonalarda o'tgan. Kechagidek esimda, onam o'n besh yoshimda Remarkning “G'arbiy frontda o'zgarish yo'q” kitobini sovg'a qilgandi. Kitobni qo'limga olarkanman, uni tezroq o'qib chiqishga oshiqqandim. Undan keyin rus adibi Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik” romanini o'qidim. Lekin bugun sakkizinchi sinf o'quvchisi shu romanni o'qib yurganligini ko'rsa, ayrimlar hayron qolsa ajabmas.

# Ma'naviyat va ma'rifat ziyosi

Ochig'i, bugun kitob o'qishdan ancha uzoqlashib ketdik. Oramizda shunday kishilar borki, kitobxonlik haqida so'z ochilsa, darrov gapni boshqa tomonga burishga harakat qiladi. Lekin har nima bo'lganda ham, xalqimizga xos ma'rifat-parvarlik bizni ezgu g'oyalari sari chorlab turaveradi. Aslida, inson boyligi uning ma'naviy dunyosi qanchalik boy ekanligi bilan o'lchanadi. Shu haqida gap ketganda Ma'naviyat va ma'rifat markazining tumanimizdagi bo'linmasi faoliyati yodimizga tushadi.

Ayni paytda bo'linma tomonidan yoshlarni ma'naviyatga, ma'rifatga undovchi qator tadbirlar o'tkazib kelinayotgani yangidan-yangi iste'dod egalarini kashf etish, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetkazish ishlarini yangi bosqichga ko'tarmoqda. Turgan gapki, bu o'z yurtini sevadigan, o'z Vatani taqdiriga befarq bo'lmagan har bir kishini quvontiradi.

Bugungi kunda ham ma'nan, ham jismonan sog'lom, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash asosiy vazifamiz hisoblanadi, – deydi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Parkent tuman bo'linmasi rahbari Mahamadjon Ibrohimov. – Shu maqsadda musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr, sport va boshqa turli sohalariga qiziqirishga jiddiy e'tibor qaratganmiz. Bo'linmamiz tomonidan tumandagi barcha umumta'lim maktablarida “Ma'naviyat soati” o'tkazib kelinmoqda. “Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, “Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik”, “Yuksak maqsadlar yo'lida yoshlar hal qiluvchi kuchdir”, “Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarash” degan g'oya asosida, “Ibrat maktabi” kabi mavzularda subhatlar tashkil etilmoqda. Shuningdek, “Jaholatga qarshi ma'rifat” mavzusida rasmlar va insholar tanlovi, tadbirlar o'tkazilyapti.

Oilalarda ma'naviyatning o'rni, yosh oilalarda kitob mutolaasini kuchaytirish masalalari doimo e'tiborimiz markazida. “Qush uyasida ko'rganini qiladi”, deganlaridek, kitobxonlik oiladan boshlanishi kerak. Chunki bola uyda ota-onasidan o'nak oladi. Biz bog'cha, maktab, litsey, institutlarda yoshlarga qanchalik ko'p mana shu g'oyani uqtirsak, kelajak avlodning ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishini ta'minlagan bo'lamiz.

Mahamadjon Ibrohimov haq gapni aytdi. Jaloliddin Rumi, Alisher Navoiy g'azallari go'zal tashbehlariga boy, asarlarini yosh avlod o'qib, o'rganishi shart. Bu ularning kamolotida muhim o'rinni tutadi.

Alisher Navoiy aytdi:

*Aql ila olam yuzin obod qil,  
Xulq ila olam elini shod qil.*

Tafakkur qilib ko'rilsa, shu ikki misrada olam-olam ma'noni anglash mumkin. Inson o'qib, ilm o'rganib yer yuzini obod qiladi, shuningdek, ma'naviyati, xulq-atvori bilan boshqalarga quvonch ulashadi. Bu esa ma'naviyat va ma'rifat degani.

Umuman olganda, kitob mutolaasi alohida mavzu. Kitob o'qish orqali inson tafakkuri boyib, qalbi go'zallashib, ruhi poklanib boraveradi.

– Yoshlarni kitobxonlikka jalb qilish orqali ma'naviyatini yuksaltirish borasida hamkor tashkilotlar bilan yoshlar o'rtasida “Yosh kitobxon”, “Men sevgan asar”, “Kitob – mening hamroh-im” kabi mavzularda targ'ibot tadbirlari, “Bolaga kitob bering!” mavzusida ma'naviyat-ma'rifat tadbirlar tashkil etib kelyapmiz, – deydi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Parkent tuman bo'linmasi bosh mutaxassisi Baxtiyor Murotaliyev. – Tumanimizda istiqomat qiluvchi kam ta'minlangan oila farzandlari va uyda ta'lim oluvchi o'quvchilarning uylariga borilib, badiiy kitoblar va o'quv qurollari sovg'a qilishni yaxshi an'anaga aylantirdik. Shu yilning iyun oyida yosh oilalarni kitob o'qishga chorlash hamda kelajakda ziyoli oilalar sonini ko'paytirish, oilalarda adabiy muhitni shakllantirishga erishish va bilim, ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga qaratilgan “Yosh kitobxon oila” ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Unda oilalar belgilangan shartlar bo'yicha o'zaro bellashdi. G'olablarga esdalik

sovg'alari, faxriy yorliqlar, o'zbek va jahon adabiyotining durdona asarlari topshirildi. Aslida ularning barchasi g'olib. Sababi, kitob o'qigan inson hech qachon yutqazmaydi. Ota ham, ona ham kitobxon bo'lsa, o'sha oila farovon bo'ladi. Shu oilada tarbiyalangan farzandlar har tomonlama kamol topadi. Kitobxon ota-onaning farzandi ham kitobxon bo'ladi. Kelajagini ko'ra biladi. Natijada yuksak salohiyatli kadrlar yetishib chiqadi. Bo'linmamiz tomonidan har oyda yoshlar o'rtasida

yozuvchi, shoirlar, jurnalistlar bilan ijodiy uchrashuvlar va mahorat darslari o'tkazilib kelinmoqda.

Baxtiyor Murotaliyev bilan bo'lgan suhbat chog'ida Hamid G'ulomning ushbu satrlari yodimga tushadi: “Oh, sening yoshliging menda bo'lsaydi!” Haqiqatan, barcha sharoit, imkoniyatlar yaratilgan. Bu borada Prezidentimizning joriy yil 26-martdagi “Ma'naviyat-ma'rifat ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori mam-lakatimizda ma'naviyat-ma'rifat ishlarini yangi bosqichga ko'tarib yubordi.

Toshkent viloyati hokimining shu yil 12-apreldagi tegishli qaroriga asosan 2021–2023-yillarda viloyatimizning barcha tumanlarida 22 ta ma'naviyat va ma'rifat maskanlari barpo etilishi belgilanganining o'ziyoq, ushbu sohaga qaratilayotgan e'tiborning amaliy ifodasi, deyishimiz mumkin. Har bir maktabda ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimi tashkil etilgani, ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash bilan birgalikda yoshlarni ma'naviyat-axloqiy yuksaltirish, ilm-ma'rifatga oshno qilishni nazarda tutadi. Endi qoralamlarini kimga ko'rsatishni, yozganlari o'z yoshiga, ruhiyatiga mos kelish-kelmasligini bilmay yurgan yosh qalam-kashlar, hech ikkilanmay ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilar tomonidan tashkil etilayotgan ijodiy to'garaklarda qatnashib, o'z yo'lini topishlari mumkin ekanini o'ylasam, ich-ichimdan quvonaman.

Dostonbek SHARIPOV

8-dekabr — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

## “Qomus nima, otajon?”

*Bolam dedi bir kuni:  
“Qomus nima, otajon?  
Menga anglatding uni,  
Yodda saqlay har qachon”.*

*Dedim silab boshini:  
“O'g'lim, qomus — bu nurdur.  
Azal hayot qomuni,  
U bahosi yo'q durdur.”*

*Ajdodlaring qadimdan  
Bosgan azim muhrdur.  
Allasi pok, suti pok,  
Ona bergan mehrdur.*

*U Temur bobong tig'i —  
Adolatdan so'zlagan.*

*Bobur oh-u nolasi,  
Olistlarda bo'zlagan...*

*Eling peshona teri  
Hamda qadoq qo'ldir.  
Yurtboshi yetaklagan  
Istiqbolning yo'ldir.*

*Bizning Bosh qomusimiz  
Adolatning xatidir.  
Yozilmishdir har bandi,  
Rumo qushim patida”.*

O'ktam YAHYOYEV,  
shiroqchi tumanidagi  
31-maktab  
o'qituvchisi





## Mutolaa zavqi

Ba'zan suhbatlashish uchun o'zingbop odamni topolmasang, kitobdan yaxshi hamroh yo'q dunyoda. Chunki u senga borini beradi, sayqallaydi, yo'g'ini o'rgatadi, tarbiyalaydi. Asosiysi, seni eshitadi. Qo'lsiz, oyoqsiz, tilsiz-zabonsiz jon-joninga kirib boradi... Xotiralarini ishga soladi, aql murvatingni burab, qotib qolgan joylaringni yog'lab, sozlab beradi. Inson aql-tafakkuri bilan oliy maqomli bo'lsa, nafsi-yu balosi bilan tubanga ketadi. Hamisha menga qanday foyda bor ekan, nima nafi tegar ekan degan qotirma o'y insonni zavolga boshlaydi. Kitobning do'stligi esa bizga hech kim berolmagan boyliklarni berishidir. Jahon adabiyoti durdonalariga til tekkizmagan holda agar asar o'z milliy an'analimiz, qadriyatlarimiz, ayniqsa shevamiz bilan yo'g'rilgan bo'lsa, yanayam ta'sirchanlik ahamiyati oshadi. Temirpo'lat Tillayevning "Voris" qissasini o'qib, bolaligimning bir qismi o'tgan qishloq hayotiga shog'ng'ib ketganday bo'ldim. Qahramonlar O'lmas, Asadbek, Shodi lavzalar go'yo Qamashining Chim qishlog'ida yashab o'tgandek. Qishloq bolalari chana uchadigan baland tepaliklar ko'z oldimda namoyon bo'ldi.

## Chalalardan asrasin...

Asarda qashqadaryocha, xusu-san, Chim qishlog'ining shevasini o'qib, "ena jurtim", deb faxrlanadigan chimliklar hayot tarzi, shevalari, tabiat manzaralari, ikki chak-kasi tut bilan qoplangan, dalaga, daryo yoqasiga olib chiquvchi toshli tuproq yo'l, sokin va azim daryo bo'yida qiyqirib o'ynayotgan qishloq bolalari ko'z oldimda gavdalanadi. Joy haqidagi yana bir jihat e'tiborni tortadi. "Eh-he, u zamonlarda Qashqadaryo azim daryo edi. Suv yayrab-yayrab, yoyilib oqqan", deb yozadi muallif. Qashqadaryo desa yetmish ikki tomirim qaqshab, o'sha muazzam daryo yoqasida, aniqrog'i, uylari baland tepalikda joylashgan Pirmat hoji bobom, Xudoyqulgovboy bobom, bo'ylari siriqday, sochlari sunbul kabi, ko'zlari o'tdek chaqnab, enamning aytishiga ko'ra, g'ayratidan oyog'idan olov chiqqan Ortiq momom va ularning uyiga qayerdan, qanday kelib, va yana qayerga ketganini hech kim ko'rmagan va bilmagan "Avliyo-G'oyib" bobomiz ziyoratgohi ko'z oldimga keladi. Bolalikni beg'ubor deymiz. Biroq bolalarning ham sirli va g'aroyib dunyolari bor. O'quvchilarning ijtimoiy ahvolidir qarab baho berishlar, kimgidir o'qichasiga yon bosishlar, noma'qul tanbehlar-u tahdidlar, o'qituvchining nafaqat o'ziga, balki shu kasbda yurgan minglab halol insonlarga nisbatan ishonchsizlik hissini paydo qiladi. Insonning boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan bir jihati bor — u ham bo'lsa, uning ma'naviyatidir, deb yozgan edi atqoli adibimiz O'tkir Hoshimov. Asarda Chala obrazi, xuddi mana shu odamiylikdan yiroq, hamma narsadan o'z manfaatini ustun qo'yadigan, kimdan bo'lsa ham foydasiga yulgan kunini bayram qiladigan, o'z qarashlarini tish-tirmo'g'i bilan himoya qilgan holda, "g'olib"ligiga shubha bilan qaraydigan qo'rqqoq bir kishi. O'zgarishga, yuksalishga intilmagan va bu yo'ldan bormoqchi bo'lganlarni ham kalta qaytarishga urinadigan, yo'q, balki majburlaydigan, jamiyatdan ajralib, o'zidan boshqani ko'rmaydigan

nobop nusxa. Qissani o'qir ekanman, inson psixologiyasi qanchalar nozikligi-yu, u bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish lozimligiga yana bir karra amin bo'ldim. Mehrsizlik, bag'ritoshlik insonni nimaga aylantirishi mumkinligini taxmin qilaman. Asarda ilgari davr tasvirlangan bo'lsa-da, u bugungi kun uchun ham ma'naviy-ma'rifiy, pedagogik, tarbiyaviy, kerak bo'lsa psixologik jihatdan ahamiyatlidir. Chalani aytmasak ham bo'ladi. Biroq diplomli, ma'lumotli muallimlarning maktabga, o'quvchiga va o'zaro bir-birlariga munosabatlari haqida nima deyish mumkin? Bugun ham maktablarda Mingnorovlarni uchratib qolamiz. Hech bo'lmasa ularning o'rinbosarlari saqlanib qolgan. Har qalay "kal echki", "progulchi" demasayam, "ODAM bo'lmasan", "SENI yo'qotib yuboraman", deydigan mingnorovchilar toifasi topiladi. Ham pedagog, ham ruhshunos sifatida shuni ayta olamanki, ota-ona e'tibori, mehr-shafqati, kerak joyda to'g'ri berilgan jazosi farzandning kelajagini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Ba'zan ota-onalar bilib-bilmay o'z farzandlaridan "HECH KIM"larni yaratib qo'yadilar. Ularning ong ostiga "hech kim bo'lmasan" kabi so'zlarni muhrlab qo'yishadi. Psixologiya fani buni kelajakka tasdiqlash desa, muqaddas dinimiz islom esa yaxshi so'zga ham, yomon so'zga ham farishta omin deydi, deb tushuntiradi. Asarni o'qir ekanman, o'ta miskin vaziyatda qolib ketgan, chala va shu hayot tarziga majburan ko'niktirilayotgan yoxud tayyorlab borilayotgan jabrdiyda O'lmasning kechinmalaridan og'rinasan kishi. Hali yaqin orada bunday ko'ngilga yaqin asarni o'qimadim. Qissani o'qish davomida O'lmas bo'lib chidadi. Sabr qildik, tayoq zarbidan azoblandik, o'pkamiz to'lib yig'ladik va u bilan portladik. Endi izini izlab, yo'lini poylab qaqshab qolgan Chalaga taskin bermasak-da, unga sabr va shukr tilab, O'LMA, BORAR MANZILING YORUG' BO'LSIN, deymiz. Bugun hamma yoqni Chalalar bosib ketdi. Nima

ko'p? Bozor ko'p. Kiyim-kechak shoh-u gadoga teng. Pulingiz bo'lsa sotib olaverasiz. OPPOQ ko'ylak kiyib, galsuk taqib, qo'lidagi qimmatbaho soati-yu telefoni bilan ko'zingizni shamg'alat qilib yurgan Chalalar ko'p. Ammo suhbatini olib, fikrlashini eshitib ko'rsangiz, bahosini darhol berasiz. Chunki fikrlaridan bilimsizlik, ma'naviyatsizlikning "hidi" kelib turadi. Ular qimmatbaho ko'yilgi-yu, zebi-ziynatlari bilan hammani o'ziga qarataman, deydi. Avval havasingiz kelganday bo'ladi, ammo so'zini eshitib, fikrini olganingizdan keyin shunchaki tomoshaqovoq ekanligini anglaysiz. Tomoshaqovoqlarni bilasiz. U yonidan o'tib qaraydilar, bu yonidan o'tib qaraydilar, cheritib ko'rsa puk-puk. Bu degani hech narsa yo'q. Hafsalangiz pir bo'lib, ketgan vaqtigizga ichegiz achiydi. Albatta, xalqimiz ma'naviyatini, ma'rifatni ulug'laydigan xalq. Shuning uchun ham kiyimingga qarab kutib oladilar, fikringizga qarab kuzatib qo'yadilar degan dono naql o'sha donishmand xalqimizning xulosasidir.

Deyarli katta ahamiyatga ega bo'lmasa-da, aytib o'tishni joiz deb topdim. Asarda bir xil jumlani bir necha joyda izma-iz uchratasiz. Nazarimda, ularning mazmunini saqlagan holda, so'zlarni o'zgartirib keltirish ma'qul bo'lardi.

Odamzod bamlisi ilm, zuko, yetib bo'lmas hisob va usta musavviro aql bilan yaratilgan. Uning yaralishi-yu, tugalishi ilimga asoslangan ekan, ilm va ziyo hamisha g'olibdir. Uni izlaganlar esa hammaga ham nasib qilavermaydigan o'sha ko'z ilg'amas nur, o'sha yorug'lik qanotida yuqorilab boraveradi. Yozuvchi Temirpo'lat Tillayev Chalalardan nafratlanib, O'lmaslarning sobitqadam bo'lishini orzulagan va uning o'zi bilmagan yorug'likka chiqishini chin dildan istagan, samimiy do'st, mahoratli, iste'dodli ijodkor sifatida e'tiroflarga munosibdir.

Oyigul MARDONOVA,  
Qamashi tumanidagi  
76-maktabning  
ljodiy-madaniy masalalar  
bo'yicha targ'ibotchisi

ljodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi... Kulgim qistagandi boshida. Shunaqayam lavozim bo'ladi? Xo'p, u nima karomat ko'rsatadi, maktablarga boribolub? Kitob o'qishni o'rgatadimi? Yo'g'ey, buni bog'chadayoq o'rgatishadi-ku bolaga?!.. Kitobni ko'p o'qishga qiziqiradimi, bo'lmasa? Adabiyot o'qituvchilari nima qilyapti unda?! O'qishga arziydigan va o'ziyam o'qib chiqqan kitoblarni bitta-bitta saralab, navbati bilan o'quvchilarga tarqatish hamda qaytarib olayotganda fikrlashish, xulosalarini o'srash... bo'lsa kerak-da u holda vazifasi? Xo'p, unda kutubxonachi nima uchun kerak?!

Ha-a, maktabdagi kitob o'qishni yaxshi ko'radigan va o'zicha nimalardir yozib-chizib yuradigan o'g'il-qizlarni aniqlab, ularning shu qiziqishlari ustida ishllovchi, shuningdek, ular yozgan-chizgan xomaki nimarsalarining u yoq-bu yog'iga "qalam tekkizib", matbuotga olib chiquvchi... Shundaymi? Avval muallimlar, keyin sinf rahbarlari qilmasmidi bu amalni? Harqalay biz o'qigan paytlari muallimlar "yilt" etgan iqtidorgayam befarq qarashmasdi. Sinfimizdagi she'riyatga havasmand bolalarning yozganlarini xatjildga solib, tuman gazetasiidan tortib Toshkentgacha yuborardi muallimlarimiz. Hatto bir safar poytaxtdan bir katta bolalar shoiri maktabimizga kelgandi — aynan she'r, maqola, insholarni qoyillatib yozadigan bir sinfdoshimizni axtarib!.. Xo'sh, unda nima ish qiladi, bu "targ'ibotchisi"? Taqvimdagi "qizil kun"lar munosabati bilan tadbir-padbir yasab yuradimi maktabda? MMDO — ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, eskichasiga aytasak, "zamdirektor"larning ishi nima unda?.. Bundan chiqdi, yana bitta "oylikxo'r", davlatga! Agar O'zbekistonda o'n mingta maktab borligi rost bo'lsa — o'n mingta budget uchun "ortiqcha odam" degani bu!..

Bunday mushohadalar meni besh oycha maktabga bordirmadi. Direktori chaqirdi, xodimlari chorladi, xalq ta'lim bo'limi surishtirdi, hokimiyatdagilar undadi, yaqinlar qistadi... Men esa o'ylarimdan o'z almasdim. Ammo... TIRIKLIGIMIZ sabab ko'nmaganimizga tirikchilik bahona rozi bo'larkanmiz bir kuni, baribir. Ha, meni: ikki-uch oyda bir beriladigan arzimmas maosh, ungacha uyulib ketadigan qosh-u qarzar, tashvishmand xo'shniqlar, hisob-kitobdan tirishgan peshonalar, faqat va faqat ko'tarilib borayotgan narxlar, tang qishloq sharoiti, yaqin qolgan qish... qisqasi, tirikchilik ko'ndirdi, axyiri. Shunday qilib, sentabr o'rtalaganda, har shanba qishlog'imiz boshidagi bilim o'chog'iga — 47-maktabga qatnashni boshladim...

— ...Nima uchun shu-uncha maktab turganda, bizni tanladigiz? — so'rab qoldi bir safar 5-sinf o'quvchisi Yodgor. — O'qigan maktabingizga borsangizam bo'lardi-ku, masalan?

Bu savolni berishlari tayin edi. Ammo o'n ikki yashar boladan chiqishini kutmagandim. Farang choli Gyugoning gapi chinakan: masxaraboz bilan bolani mot qilaman deb, xomta ma bo'lma! Biroq Yodgorning bolaligi tug'ilganidan uch kun o'tibog tugagan. Onasi uni keltirgan dunyoni tark etayotib, o'g'lining doktor bo'lishini istagan, negadir. Shunga ismi Yodgor. Istagi esa harbiy, ham darvozabon bo'lish. Bir boshida doktorlik, harbiy va darvozabon bo'lish amaliini qanday eplashga hayron. Harbiy vrach bo'lishini kengash berdim. Iste'foga chiqqach, darvozabonlikkayam ulgurur. Milliy terma jamoamizda qirqa kirgan to'p parlar lo'killar yurganini ko'rdik yaqin-yaqingacha.

— Boshqa maktab — boshqa olam, qaysidir ma'noda, — deyman samimiy kayfiyatni yo'qotmaslikka tirishib. — Men uchun boshqa olamlarni kashf qilish qiziqroq. Qolaversa, bu maktab ham menga juda-begona emas, bolaligimning yarmi shu tevarakda o'tgan.



# Haftaning "o-kuni" da O'QIYDIganlar!

## (tumanimizdagi 47-maktabda topgan "ma'dan"larim haqida esse)

Ular javobimdan qoniqishdi, chog'i, savollar o'zani o'zgarib ketdi va bu mavzuga qaytishmadi. Ammo asl haqiqatni aytmaganim, ya'ni bir maqolam bahonasida o'qigan maktabim ma'muriyatiga allaqachon "olabo'ji" ko'rinib qolganimni pinhon tutganim bois o'zim qoniqmadim javobimdan. Nachora, yunonlar aytmoqchi, Demokrit mening do'stim, lekin haqiqat undan ustunroq.

— Mening yozganlarimni gazetada chiqar-maslikning iloji bormi? — deya bot-bot so'raydi beg'ubor tabassumli Binafsha, xiyol qizarib. — "Chalashoir" deb ustimdan kulishyapti-da...

Chapaqaylardan mana shunday, ters mulohazalar chiqadi, odatda. Bizningcha, ters tuyuladi, to'g'rirog'i. Pirovardida esa nainki o'zlarini, balki butun bashar hayotini o'nglab yuborishi mumkin mulohazalari. Deylik, da Vinchi. Ha, o'sha mashhuri jahon kashshof. Chap qo'lida yozardi-chizardi-hisoblardi... Biroq ilk g'avvoslar kiyimidan to parvoz moslamalarigacha u ixtiro qilmabmide? Unga qadar bularning bari mif edi, xolos. Shunday ekan, bugun mazaxlarga mo'ljall bo'lgan ko'yi yozganlaridan iymonib yurgan shu qiz istiqbolida insoniyat faxri mujassamdirl..

Yo'q, buning uchun aynan nimanidir ixtiro qilish shart emas. Ehtimol, o'zi orzulagandek, rus tili fani o'qituvchisi o'laroq qadr topar. Yoki uydagilari orzusicha, doktor bo'lar buyam (qiziq, eldoshlarimiz farzandlarida faqat "do'xtir" yo "vovenniy"ni ko'rishadi. Nima, boshqa kasbga ehtiyoj yo'qmi bu yurt-da?! Borlikka-kun bor, sanoqsiq. Hamma toza shundaki, yurtning emas, shaxsan o'zimizning ehtiyojlarimizdan kelib chiqqan holda zuriyotlarimiz kelajagiga "tamg'a bosamiz"!). Menga qolsa-ku, o'z orzusiga erishgani ma'qul. Xo'p, nega bu qiz rus tili o'qituvchisi bo'lmoqchi o'zi? Fahmimcha, ularga rus tilini o'ta xushfe'l, ochiqyuzli va mehribon o'qituvchilar o'rgatgan. "Malika opa", "Lola ustoz" kabi ismlarni qayta-qayta uchrataman daftarlarida. Baland, toza bir ehtirom ila eslaydi barchasini. O'sha o'qituvchilar o'z so-halarini qanchalik egallashgan, bilmadim, ammo qisqa vaqtda o'z xulqlari bilan o'quvchilar qalbidan chuqur joy egallashibdi. Va, eng muhimi, ular hech bir bolani mazax qilmay, ko'ngillarini rag'batlantira bilgan!

— Iloji-ku bor, albatta, — deyman avval Binafshaga, so'ng boshqalarigayam bir-bir ko'z tashlab, — xo'p, shu bilan ustingizdan kulishni bas qilishadimi? Mazax qilishdan to'xtashadimi shu bilan? Odamlarga quloq solsang, odam bo'lmaysan, deydi Tog'ay Murod. Ich-ichingizdan to'g'ri yo'lda ekaningizni his etib turibsizmi, bas, vallomat gapirmaydimi — qaytmang!

Shu gaplarni aytayapman-u o'zimiz qanchalik amalda ekanligimizni xomcho'tlardim. Maktab davrlarimga xayolan safar qilaman. Sinfimizda ikkitasi she'r yozardi. Va ularga havas ham hasadan boz bittasi o'zicha qofiya yasashga tushgan edi. Shoirlaharimizdan biri — diplomat, biri — prezident bo'lgan derdi. Uchinchisi esa, garchi qishloq bozoriga borguncha avtobusda sulayib, hammayoqqa qussa-da, "katta bo'lsam, fazogir bo'lam-man!" deb, insholar yozardi. Bugunchi: "diplomat"imiz — shahar kuzatuv kameralari uzra boshliq, "prezident" — kimyo-biologiyadan repetitor. Uchinchisi?!.. Unisi hanuz yozyapti. Kamiga yuragini bo'shatolmay yurganlarni yozishga undab ham turadi. Uni o'shanda ham mazax qilishardi, hozir ham orqa-oldidan hiringlashadi. Ammo u ibodat qadar halovat-u sakinatni yozishda va mutolaada topdiki, qolganiga og'iz to'ldirib tupurgani bor...

— Ko'p narsalarga qiziqaman... Ammo Messiday futbolchi bo'lgim keladi, — deydi Zafar qimtinib. — O'zbekistonga ko'p g'alabalar opkelsam, jahon chempionatlarida gollar ursam...



Xuddiki, ortiqcha gapirib yuborgandek jimib qolgan Zafarga biroz qarab turaman. Boshqalar ham unga tiki-ladi. Ayniqsa, yonida o'tirgan Yodgoring ko'zlarida "gapir, jo'ra, gapirsang-chi!" xitobi yolg'inlanadi. Zafar gapirmaydi.

— Zo'r-ku! — deya Zafarga ro'para o'tiraman. — Nega o'z orzungdan uyalasan? Lekin bir gap: Messiday golurur bo'lish uchun Neymardek yelkadoshing ham bo'lishi kerak! "Barsa"da to'p surgan paytlari bu ikkisi et bilan timoqday edi. Messiga to'pni raqib darvozasi oldida aynan Neymar o'xo'shatib oshirardi. Va Messi bo'olab golini urardi... Yevropa futbolining yutug'iyam shunda! Xo'sh, senda shunday yelkadosh bormi? Hayotdagi "Neymar"ing kim?..

Zafar qabatidagi Yodgorga qarab qo'yadi. Yodgor esa menga mamnun va mag'rur jilmayib qaraydi: "... ana shunday jo'ram bor!". Qanday yaxshi! O'zlari kabi g'uborsiz va beta'ma do'stlik. Tayin bir do'stga yolchish ham ulkan baxt. Bu rishtani oxirigacha saqlab qolish — saodat!

— Shu chorak tugagandan keyin Navoiyga oilaviy ketyapmiz, — degan Marjonaning sokin tovushidan hushyor tortaman. — Butunlay! Oxirgi topshirig'ingizni bajarib keldim. O'rgimchak to'rini topib, chizib kelishimni aytgandigiz. Mana...

Ko'zoynak ortida jovdirabgina turgan ko'zlarida xijolat qalqdi. Chizib kelgan rasmiga qarayman: oddiy qalamtasvir, o'rgimchak ham, to'riga ilashib qolgan o'ljalar ham jilmayib turardi... Ajab, bolalar chizgan hamma narsa kulib turadi doim. Avvalboshda hamma ularga kulib qaragani uchundir, ehtimol. Marjona yaxshi surat soladi. Natyurmort, natura, moybo'yoq... barchasida tasvirni tasavvur uchun kifoya darajada ifodalay oladi. Kitobni ham ko'p o'qiydi. Husnixa-tiyam tez va ravon... Ketayotgani xabari og'ir botgan esa-da, sezdirmaslikka urinib, rasmlarini uzoq tomosha qilaman.

Go'yo bari ana shunday, asta-asta maktabni tark etayotgan kabi qarab-qarab olaman. Ular ham men-ga sin solib o'tiradi: ana, mitti Gulsanam — mendan bir mo'jiza kutgandek, charaqlab tikiladi; ana, to'pori Mehridin — daftariga berilib yozyapti; ana, erka Gulsevar — yozuvtaxtani birinchi bo'lib artish-chun yugurishga shay kayfiyatda; ana, kamgap Muham-mad Ali — sokin qaroqlariga jiddiyat cho'kkan; ana, shaddod Salomat — qo'lidagi ertak kitobni tutilib-sutilib bo'lsa ham o'qib berish payida... Qay birlarini keyingi shanbada ko'rishim dargumon: yo kasal bo'p qoladi yo kimidir olamdan o'tadi, yo ishi chiqadi, yo shunchaki, kirgisi kelmaydi.

—...uyga vazifani yozinglar! — deyman-u bo'mi horg'in olaman. Yozuvtaxtani to'ldirib, uchta so'z hosil bo'ladi: "Haftaning sakkizinchi kuni".

Bir muddat daftarlar shitirlashi to'xtay-di. Nigohlarda muallaq qotgan savollarga javoban lafz ochaman:

— But-tun haftani ish-o'qish-tashvish... bilan o'tkazib yuboramiz. Tasavvur qiling-larki, hafta kunlaridan tashqari, yana bir kun berilsa? O'z-o'zlarin-gga! U kunda hech-ch qanday maktab ham, uy ishlari ham, boshqa tashvishlar ham bo'lmasa!.. Xo'p, kim qanday o'tkazgan bo'lardi, o'sha haftaning "sakkizinchi kuni"ni?!

— Men bir-r tonna kitob o'qigan bo'lay-dim! — dedi darhol birovi, hayajon-la bijir-lab. Qolganlariyam bo'lak bir taraddudga tushadi.

— Keyingi shanbaga yozib kelasilar, — deyman, xayrlashuv ohangida. — Bo'ldi, soat... o'h-ho'-o', ikkidin oshib ketibdi-ku! Qorinlaringam ochqab ketgandir?

— Iye... Darrov ikki soat o'tib ketitimi?! — deydi Binafsha ishonqiramay. — Boshqa darslarda tanaffusni kutaverib, ze-rikib ketamiz!..

Ha, bizning mashg'ulotlar shunday: na vaqt, na tanaffus, na yo'qlama, na ro'yxat, na baho-ball... Bar-chasidan xoli, erkin va ixtiyoriy, bir o'yin misoli o'tka-zamiz. Birda stul yetmay, joy talashib qolishsa, birda to'rttaginasi, sinf bo'ylab sochilib o'tiradi. Ijod uchun, kitob uchun hech zamonda maktab ahli yoppasiga yopi-rilib kelganmikan o'zi?!

Mashg'ulot kunimiz bo'lmish shanbani, yarim istehzo ichida — "haftaning 0-kuni", deyman. To'g'ri-da, mazmunan: (yak)shanba — birinchi, (du)shan-ba — ikkinchi, (se)shanba — uchinchi, (chor)shanba — to'rtinchi, (panj)shanba — beshinchi, (odina) juma — oltinchi... kun bo'lgach, shanba-chi? "Yettinchi kun" desak — "haftshanba" deyilishi kerakmasmide fors-tojik zabanida? Sof turkiycha aytilishi yo'qmi yoki?! Mi-sol uchun, Xorazm tarafdari — "bozorning birinchi, ikkinchi, uchinchi... kuni" deb yuritilishini o'qiganim bor. Qishlog'imizdagi yoshi ulug'lardan ham shun-day tartibda sanaganlarini eshitib qolaman. Hafta-paf-ta deyishmaydi. Islom aqidasi bo'yicha yondashsak, yanayam ma'qulroq atalardi, ammo: yakshanba emas — "Yaralishning birinchi kuni", dushanba emas — "Yaral-ishning ikkinchi kuni" va hokazo.

Biroq baribir shanba kuni, qaysi tomondan qaramay, ortib yoxud yetmay qolaveradi. Shundayekan, shanba — "haftaning nolinchi kuni" ekan-da deb, kulimsirab qo'yaveramiz. 47-maktabdagi qorako'zlar esa — o'sha "nolinchi kun"da O'QIYDIganlardur! Rost, ular shu kuni astahidil o'qigani keladi, maktabga. Shu kuni ular kutubxonagayam farqli bir ishtiyodda o'zlarini urib, kitoblari ko'tarib chiqishadi. Va shu kuni ular asarlar ichiga sho'ng'ib, qahramonlari birla sarguzashtlarni "boshdan kechirishadi"...

Men esa... hali-hanuz o'zimni "ortiqcha odam" his etaman! Hali-hanuz bu "targ'ibotchi" degan kimsa-ni rahbariyat doirasida belgilangan (aniqrog'i, qolip-ga solingan!) vazifalaridan ensam qotadi! Hali-hanuz "hamkasb"larim singari besh-o'nta bolani yig'ib-terib, "jiddiy-jiddiy" qiyofalarda suratga tushirtirgan ahvolda, o'zimni "ish ustida" ko'rsatolmayap-man! Hali-hanuz "tadbir", "tanlov", "musobaqa"... sanaluvchi quruq hisobot uchun uyushtiriladigan, xo'jako'rsin tomoshalarga rag'batim bo'lmayotir!..

Ammo har shanba — "nolinchi kun", tushga yaqin kiyina boshlayman. Iloj qancha, men o'z vijdonim-ga firib berishim mumkindir, biroq bolalarni — tu-manimizdagi 47-maktabdan topgan "ma'dan"larimni aldashga haqqim yo'q.

Sherbek BOBOQULOV,

Paxtachi tumanidagi

47-maktabning ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi



# Iftixoring bo'lay, maktabim!

O'quvchilarni kitobga, adabiyotga qiziqtirish, ularning qalbidagi iste'dod uchqunlarini alanglatishda maktablarda tashkil etilgan adabiy to'garaklarning o'rni beqiyos. Ana shunday to'garaklardan biri Yangi hayot tumanidagi 331-maktabda ham faoliyat yuritmoqda. Unda faol qatnashadigan bir guruh o'quvchilarning ijodiy mashqlarini e'tiboringizga havola etishga qaror qildik. Jajji qalamkashlarning nomlarni yaxshilab eslab qoling! Balki bu to'garak a'zolari ichidan kelajakda buyuk ijodkorlar yetishib chiqar.

## Samodagi yulduzlar



Yulduzlarga boqaman,  
Juda chiroyli ular.  
Yaltirar olmos kabi,  
Porloq ko'zlari kular.

Meh ham ular misoli,  
Chaqnab, charaqlab  
tursam.

Nedan menda bu orzu,  
Ketmas hech  
xayolimdan.  
Hatto tushlarimda ham  
Men yulduzlar yonida.

Ular orzularimdir,  
Meni chorlar olis yo'l.  
Uchmoq kerak,  
jon do'stim,  
Yulduzlarga yetmas qo'l.

Goh o'ylanib qolaman,  
Qani yonida bo'lsam.

Muhammadimron  
SODIQOV,  
7-"B" sinf o'quvchisi

## Maktabim



Maktabimiz ostonasi,  
Gulzorlardan boshlanar.  
Bu yerda kelajakka  
Katta qadam tashlanar.

Maktabim, men  
bag'ringda,  
Bilimlarga to'layin.  
Kunlar kelib men sening,  
Iftixoring bo'layin.

Zarina NARZULLAYEVA,  
6-"B" sinf o'quvchisi

## Onam va ertak

Ertak aytin, onajon,  
Men jim uxlab qolayin.  
Ertaklarning sirini,  
Tinglab, uqib olayin.

Ular juda ajoyib,  
Ko'p narsani o'rgatar.  
Adabiyotga mehr,  
Ertaklardan boshlanar.

E'zoza SAYFULLAYEVA,  
6-"E" sinf o'quvchisi



## "Ma'rifat"ga sayohat

Darsda o'tirgan edik, ona  
tili o'qituvchilarimiz bizni  
"Matbuot uyi"ga olib bo-  
rishlarini aytishdi. Ham-  
mamiz juda xursand bo'ldik. U yergacha avto-  
busda ketdik. Avval Amir  
Temur xiyoboniga sayohat  
qildik. Ustozlarimiz Sohib-  
qiron bobomiz haqida bizga

juda qiziq narsalarni so'zlab  
berdi. Keyingi manzirimiz  
biz intiq kutgan "Matbuot  
uyi" bo'ldi. U juda salo-  
batli, chiroyli bino bo'lib,  
u yerda ko'p gazeta va jurn-  
nallar joylashgan ekan. Biz  
"Ma'rifat" gazetasi tahriri-  
yatiga keldik. U yerda bizni  
juda yaxshi kutib olishdi. Biz-



## Kuz



Esdi mayin shamollar,  
Oltinrangdir tomonlar,  
Omon-omon zamonlar,  
Kuz ham keldi, bir qarang.

Yayrayotir jonimiz,  
Go'zaldir har onimiz,  
Mo'l bo'ldi xirmonimiz,  
Kuz ham keldi, bir qarang.

Charos IBODOVA,  
5-"A" sinf  
o'quvchisi

## Mening bobom

Do'stlar, mening mehribon,  
Quyosh kabi bobom bor.  
Shu sababdan men doim  
Shodman, juda baxtiyor.

Aytgan har so'zi oltin,  
Ko'p narsani biladi.  
Har kuni baxtlar tilab,  
Meni duo qildi.



Zebiniso AHMATOVA,  
5-"A" sinf o'quvchisi

## Qishning sehri

Qish fasli deganda birinchi  
navbatda sovuq, qorli kunlar,  
qarg'alarining ovozi, yax-  
malaklar, tarnovdagi su-  
malaklar ko'z oldimga ke-  
ladi. Yana chelakni boshiga  
kiygan qorbola, oyoqni yer-  
ga qo'yganda g'irch-g'irch  
etadigan tovush va tengdosh-  
larim bilan qor o'ynaganimni  
eslayman. Garchi sovuqdan titra-  
sak-da, qo'llarimiz muzlab qolsa-da, baribir qish fasli  
maroqli. Menga, ayniqsa, daraxtni silkitganda ustim-  
ga qor uyumining "qulashi" yoqadi. Bu juda go'zal  
manzara!



Robiyaxon G'ANIXO'JAYEVA,  
7-"A" sinf o'quvchisi

## Telefonning zararlari

Bugungi kunda internet ham-  
maning hayotiga birdek kirib  
keldi. Uning afzalliklari ko'p  
bo'lishi bilan birga, talay-  
gina zararli tomonlari ham  
bor. Ayniqsa, bolalar uchun  
uning afzal tomoni ham  
zararga ishlaydi. Masalan,  
telefon ekranini olaylik. Un-  
dan ko'rish qobiliyatiga putur  
yetkazuvchi nurlar tarqaladi. U  
nafaqat ko'z, balki ongimizga ham  
salbiy ta'sir ko'rsatadi, xotirani susaytiradi.

Men hatto yo'lda ham telefonga termulib ketayot-  
gan bolalarni ko'p uchrataman. Bu yomon hollarga olib  
kelishi mumkin. Biz o'ta-onamizning so'ziga kirib, tele-  
fonning zararli nurlaridan uzoqroq turishimiz kerak.



Shodiya ISMOILOVA,  
5-sinf o'quvchisi

## Kuzni yomon ko'raman

Mehribon yoz o'z o'rmini  
kuzxonimga bo'shatib berdi.  
Yozda tug'ilganim uchunmi,  
yoki yomg'irlarda shalabbo  
bo'lishni yoqtirmaganim-  
danmi (xuddi mushugimiz-  
ga o'xshab suvdan juda  
qo'rqaman), bilmadim,  
kuzni uncha xushlamayman.

U qadar so'zga chechan  
emasman, shu sababdan xazon-  
lar to'kilgan go'zal yo'laklarning  
manzarasini u qadar chiroyli qilib tasvirlay olmayman.

Avvallari menga o'xshab hamma kuzni yoqtirmasa  
kerak, deb o'ylardim. Keyinchalik bilib oldimki, ham-  
ma bir xil emas ekan. Masalan, opamdan so'ragandim,  
"Kuzni, yomg'irlarni juda yaxshi ko'raman", dedi.



Sarvinova KOMILJONOVA,  
5-"A" sinf o'quvchisi

ga gazetani sahifalash, maqola-  
larni tahrirlash jarayonini  
ko'rsatishdi. Gazetaning  
tarixi, unda qanday  
maqolalar bosilishi haqida  
ham ma'lumot berishdi.

So'ng bosh muharrir-  
ning xonasida suhbatimiz  
she'rxonlikka ulanib ket-  
di. Ijodkor tengdoshlari-  
miz o'zlari yozgan she'r,  
hikoyalarni o'qib berdi. Gaze-  
ta xodimlari ham she'rxonlikka qo'shildi. Hat-  
to bosh muharrirdan ham she'r eshitdik. U kishi  
bizga kitob o'qishning ahamiyati haqida so'zlab  
berdi.

Shu bilan birga "Ma'rifat" gazetasining qator yu-  
tuqlari bilan ham tanishdik. Ular qatorida "Oltin qa-  
lam" mukofoti ham bor ekan. Bir so'z bilan aytganda,  
ushbu sayohat taassurotlarga boy bo'ldi. U yerga bor-  
ganimizdan juda xursandmiz!




Durdona EGAMBERDIYEVA,  
Adhamjon RAHIMOV,  
Muhammadamin ABDURAHMONOV,  
shu maktabning 7-"A" sinf  
o'quvchilari








# **MAMLAKATIMIZNING BARCHA O'QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA!**



*Sizlarni 8-dekabr – O'zbekiston  
Respublikasi Konstitutsiyasining  
29 yilligi bayrami munosabati bilan  
muborakbod etamiz. Yosh avlod  
kamoloti yo'lidagi tinimsiz va  
qadrli mehnatingizda  
ulkan zafarlar tilaymiz.*



**XALQ TA'LIMI  
VAZIRLIGINING  
"O'QUV TA'LIM –  
TA'MINOT"  
DUK JAMOASI**



# Qanoti qayrilgan burgut yoxud do'stim shoir Rustam G'ani haqida so'z

1.

Donishmand xalqimiz taqdir bitigini peshonada ko'radi, "peshonaga yozilgan" degan ibora shunga ishora. Lekin peshonadagi bitik odamning xulq-atvoridan, tiyatidan ulgi olib yozila boradi, shekilli.

60-o'nyillikning so'nggi yillari, bizga tengqur avlod balog'at yoshiga yetib, katta hayotga qadam qo'ygan pallalar. Nafaqat O'zbekiston, balki unga yondosh respublikalardan bilimtalab, izzattalab gala o'spirin poytaxt Toshkentga yopirildi. Bizdan keyin ham, balki hozir ham shundaydir, lekin o'sha, 1969-yili bunday oqim shiddatli bo'lgani, shubhasiz. Shu oqim ichida bo'lgan shoir Azim Suyun keyinchalik yozganidek:

*Kechagina Toshkentga,  
Olis-yaqin qishloqdan,  
Gurillab kelgan edik  
Har birimiz chaqmoqday.*

Chaqmoqday gurillab kelganlar ichida qo'lingizdagi kitob muallifi Rustam, keyinchalik shoir Rustam G'ani ham bor edi. Biz o'sha kezlarda tanishdik. Kunduzgi bo'linga imtihon topshirgan qator abituriyentlar bali yetmagani yoki boshqa bir sabab (ayrim viloyatlarga imtiyoz berilar, bali kamroq bo'lsa-da, kunduzgi bo'linga qabul qilinardi) kechki bo'linga qabul qilingandik, faqat bir shart bilan — agar "Glavtashkentstroy" ga ishga kirganligi haqidagi buyruq ko'rsatilsa. Zilzila bo'lganiga bor-yo'g'i uch yil bo'lgan, quruvchilarga talab katta edi. Shu taxlit ToshDU(hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) jurnalistika fakultetining kechki bo'limida o'qiy boshladik. Kunduzi qurilishda ish, kechqurun dorilfununda o'qish. Rustam bilan bir qurilish brigadasida ish boshladik, Talabalar shaharchasining qoq o'rtasidagi poliklinika binosini bizning brigadamiz qurgan. Men yarim o'quv yilidan keyin kunduzgi bo'linga rezervist tariqasida o'tib ketdim, Rustam o'qishni, ham qurilishdagi ishini davom ettirdi.

Rustam hayratlanarli darajada kamgap, kamsuqum edi. Kerak gapni ayta, qolgan payt sukut saqlar, sergaplik unga mutlaqo yot edi. To'g'riso'z va halol edi. Hayot yo'limiz ayro tushgani bilan ahyon-ahyonda ko'rishardik, o'shanda ham men ko'proq so'zlar, u esa tinglar edi. U hamon o'sha-o'sha, kamgap va halol Rustam edi.

Chaqmoqday gurillab kelganlardan biri, hozir atqoli shoir Azim Suyun 2006-yilda "Tengqurlarimga yangi yil xati" (yuqoridagi to'rtlik ushbu asardan) nomli kattakon she'r yozib, unda o'tgan vaqt, kechgan umrni dard va armon bilan xotirlay, qator shoir, nosir va olimlar, o'z tengqur do'stlarini "nazarkardalarim-o", deya alqab,

*Nahot yoshlik shuncha tez  
O'tib ketdi, jo'ralar:  
Savr guldirdagiday  
Bitti-yitti, jo'ralar;*

deya qayta-qayta takrorlaydi, har biriga qisqa shoirona tavsif beradi. Ular orasida Rustam G'ani yo'q, shoirimiz parishonxotirlik qilib, qadrdon shoir

do'stini unutgan chiqar, xayrli ishning kechi yo'q, hali ham kech emas, she'rga Rustam haqidagi shunday to'rtlikni she'ming keyingi nashriga kiritisa ajab emas, kiritmasa ham ziyoni yo'q, bu yerda yangramoqda-ku:

*Rustam G'ani injata'b,  
Der — "Unvonlar olmadim.  
Shoir bo'lib uqalay deb  
"Artistlik" qilolmadim".*

2.

Rustam kam yozsa-da, puxta shoir. Oz yozadi, lekin soz yozadi, kam yozadi, lekin mahkam yozadi. Mana uning "O'rmon" deb nomlangan she'ri. U bori-yo'g'i uch band, o'n ikki misradan iborat. Sirtidan, turoq, shakl va struktura jihatidan ulug' shoirimiz Abdulla Oripovning mashhur "Nay" she'rini yodga soladi. Ikki she'r hatto mazmun jihatidan ham o'zaro yaqin: odamning ona tabiatga o'tkazayotgan jabri. She'r ustoz shoirming "Nay"idan ulgi olgan bo'lishi mumkin, lekin u o'z ma'no-mohiyatiga, falsafiy-ramziy mazmuniga ega bo'lgan mustaqil badiiy asar. Hatto bu ikki she'r — "Nay" va "O'rmon"ni qiyosiy-tipologik usulda tadqiq etish ham mumkin.

Kamina bir paytlar "Nay" she'riga bag'ishlangan "Nayning nolasi — kimning nolasi?" degan maqola yozib, unda she'r mitti tragediya ekanligi, shoir nayning nolasi orqali odamlar o'z dard-alamlaridan forig' bo'lishi va "Bir qamishni yig'latib chunon, So'ng o'zlar qildilar rohat" — badiyatdan lazzatlanish, azobning musiqiy izhoridan zavq tuyishdir. ... Ayni shu zavq inson mohiyatan Jafokash zot ekanligini izhor etadi. Aks holda u jafokash zot ekanligini izhor etadi. Aks holda u jafokash zot ekanligini izhor etadi. Aks holda u jafokash zot ekanligini izhor etadi. Aks holda u jafokash zot ekanligini izhor etadi. (M.Qo'shjonov, S.Meli. Abdulla Oripov. Toshkent: Ma'naviyat, 2000. 118-bet), deya yozilgan edi.

Gap shundaki, yuqoridagi zikr qilingan ona-tabiatga qilingan jabr "Nay" she'ri uchun bir vosita, yangi badiiy ma'no uchun tashlangan ko'pri bo'lsa, "O'rmon"ning bosh maqsadi va poetik ma'nosini ayni shu ona-tabiatga qilingan jabrda:

*Tabiatning mehridan mamnun,  
Shovullardi yam-yashil o'rmon.  
Bolta tutgan olomon bir kun  
Daraxtlarga keltirdi qiron.*

Esingizda bo'lsa, "bir kun" "Nay"da ham mavjud edi — "Keldilar u odamlar bir kun, Tanasiga soldilar pichoq", har ikki she'rda ham "bir kun" mash'um kun. Bunda endi "odamlar" emas, "Bolta tutgan olomon", ular tabiat yaratig'i daraxtlarga qirg'in keltiradi. Keyingi bandda "qiron" aniqlashtiriladi, daraxtning ikki turi she'r maydoniga chiqadi:

*O'tin bo'ldi asriy chinorlar —  
Ajdodlarning tilsiz guvohi.  
Archalarni qiradi beorlar,  
Ko'kni tutdi ularning ohi...*

Bu ham manzara, ham ona tabiatga o'tkazilgan jabrga hissiy-poetik baho. Birinchi misradagi ilk va so'nggi so'zga — o'tin va chinorlar — boqaylik.

Ular qanchalik zid, evrilish, qanchalik beshafqat. Chinorlar o'tin bo'lsa-ya!

Badiiy asarni muallif bilan bir safda, balki undan ustun darajada milliy til yaratadi. "O'tin" so'zi yoqish uchun ishlatiladigan yog'ochnigina anglatib qolmay, "o'tin bo'lmoq" iborasi orqali puturdan ketmoq, yaroqsiz holga kelmoq ma'nolariga ham ishorat qiladi. Gurkirab o'sib turgan chinor o'tin bo'lsa! Qayroqi ona tilimiz va uni bilib qo'llagan shoirga tasanno.

Ikkinchi misraga o'tishdan avval tarixiy bir faktni eslaylik. Xivaga yaqin Qiyot qishlog'ida Ogahiy bobo o'tqazgan tut daraxti hozir ham bor, demak o'sha tut buyuk allomani ko'rgan. Uning tili bo'lsaki, ulug' inson haqida so'zlab bersa. So'zlab beradi. Faqat biz uning tilini anglay olsak, uning hujayralaridagi axborot kodini o'qiy olsak. Xuddi shu kabi o'tinga aylangan, aylantirilgan asriy chinorlar ham ota-bobolarimizning qanchadan-qancha sir-asrorlariga guvohdir, hoynahoy.

Keyingi ikki misra qahramoni — archa. She'rda daraxtlardan chinor va archa tanlangan, bejiz tanlanmagan. Chinor — kuch-qudrat, ulug'vorlik va suyanch, archa — yashillik, nazokat va sarvqomatlik timsoli. Archa sarvdoshlar oilasiga mansub hamisha yashil daraxt, sarvdoshlar konus shaklli, ignabargli daraxt va ular ko'pincha qaddi rasolik va xushqomatlik ramzi. Go'zal va qaddi raso ayolga bejiz "sarvqomat" deyilmaydi. Shu yerdagina archani qirqqanlar nega "beorlar" ekanini anglatiladi. Or, oriyat ulkan axloqiy aqoid, orisizlik zalvorlari shunga yarasha. Archa, umuman daraxt yiqilayotib shunday g'amgin va ayanch, chinqiriq ovoz chiqaradiki, bu ularning dardli ohidir. She'rda aytilganidek, "Ko'kni tutdi ularning ohi...". Bundagi uch nuqta ohning davomligi va yana nimalarnidir bildiradi.

Avval aytilganidek, chinor va archa bejiz tanlanmaganki, ular bir maqolimizda shunday tavsiflanadi — "Chinor chirimas, archa qurimas" (O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli, 1-jild, Toshkent, 2006. 102-bet). Lekin she'rda naq teskarisi, chinor chirimoqda, archa qurimoqda.

So'nggi uchinchi band foje manzarasi-ni yakunlaydi:

*Qaynoq hayot barq urgan joyda  
Kezib yurar sharpa-ko'lkalar...  
Mungli boqar ko'kdagi oy ham,  
Hokim endi bunda to'nikalar.*

Hamda kesilgan o'rmon sahnidagi mistik manzarani chizadi. Kesilgan daraxtlar ruhi keng va yalang'och maydonda sharpa-ko'lkalar siyoqida kezadi. Ramzlar tili universalidir. U hamma yerda va hamma tilda birday harakatda. O'rmon — ulug'vor jahoniy ramz, sir-sinoatlar makoni. Dantening buyuk "Illohiy komediya" asari shunday boshlanadi:

*Yerdagi umrimning yarmini yurib,  
Zulmat vodiysida adashib qoldim.  
Boqsam bir o'rmonga ketibman kirib  
...Dahshatlarga to'la o'rmon edi u.*

(A.Oripov tarjimai)

Rustamning o'rmoni u qadar dahshatli emasdir, lekin qayg'u va alamga to'la ekanini aniq. Zero, kesilgan o'rmonga ko'kdagi oy ham mungli boqadi. Oy ko'p narsani ko'rgan, son-sanoqsiz hodisalarga guvoh bo'lgan, lekin to'nikalar hokimligi uni ham mungga cho'lg'aydi.

Shundan keyin so'nggi zarb tariqasida shoirming dil so'zi, she'rning shoh satri yangraydi: "HOKIM ENDI BUNDA TO'NIKALAR". Kesilgan o'rmondan shox-shabba-yu to'nikalardan boshqa nima ham qolardi. Lekin endi to'nikalar hokim, yo'q o'rmonning egasi. Lekin o'rmon bor, faqat endi u to'nikalar o'rmoni.

Bir qaraganda she'rda hayotda bo'ladigan oddiy voqea tasvirlangan. Daraxt kesish hayotiy zaruriyat. Lekin shoir voqeani shunday rakursda ko'rsatadiki, u boshqacha ma'nolar olami tomon ko'chib o'tadi. Zero, bu tasvir muallif uchun maqsad emas, vosita. Boshqa, yuksalroq ma'no uchun yo'l. O'rmonning borlig'i daraxt. Daraxt esa buyuk jahoniy metafora. "Dunyo xalqlari asotirlari" qomusida "Drevo mirovoye (arbor mundi, "samoviy" daraxt)" maqolasida daraxtning "hayot daraxti", "hosildorlik daraxti", "markaz daraxti", "yuksalish daraxti", "samoviy daraxt", "shaman daraxti", "mistik daraxt", "bilish daraxti" kabi bir necha ramziy-mifologik turlari sanalgan. (Qarang: Mif narodov mira. Ensiklopediya v 2-x t. T.I. M., 1991. S. 398).

She'rda qaytsak. Buning ustiga daraxt bilan to'nka bog'liq tushuncha, daraxt kesilsa, to'nkasi qoladi. Rustamlar avlodiga ustoz maqomida bo'lgan Rauf Parfi o'zining "Shamolalar" she'rda "Kesilgan daraxtlar — to'ngakdir kesilguvchi boshlarga" deya matematik aniqlik bilan achchiq lutf etadi. Tilimizda ma'nodosh uch so'z bor: to'nka, to'ngak, bilan. Hassos so'z zargari bo'lgan Rauf Parfi shu o'rinda "to'ngak" (kunda desa ham bo'lardi) so'zini qo'llaydiki, "to'nka" ko'chma be-fahm, befarosat ma'nosini bilan kontekstdagi aniqlikka putur yetkazib, mazmunni nomatlub tomonga burib yuborishi mumkin edi. Lekin ayni shu ko'chma ma'no "O'rmon" she'ri, xususan uning so'nggi bandida ijtimoiy va ramziy-falsafiy ma'noni vujudga keltiradi.

Yana bir bor oxirgi misra — "Hokim endi bunda to'nikalar", undagi birinchi va so'nggi so'z — hokim va to'nikalar orasidagi ikki so'zni ajratib olib, unga diqqat qarataylik: "endi bunda". U hodi-saning payt va joyini anglatib, kundalar-ni zamon va makondagi hukmronligini aniq va lo'nda qayd etadi.

Ustozlarning ustozlari, akademik Izzat Sulton aytib bergan edi. Tarixiy roman-navis Sergey Borodin sovet NKVDsi boshlig'i Lavrentiy Beriya bilan yaqin bo'lib, u bir safar Izzat akaga mustabid dohiy Stalinning "Har besh yilda o'sib chiqqan yoshlarning boshini olib turish (chekanka) lozim, shundagina xalqni boshqarish oson bo'ladi" degan gapini maqtanib(shu so'zni Izzat aka maxsus ta'kidlardi) aytib bergan ekan. Chunki aqlli boshlar olinganda to'nikalar qoladi, ular bosh ko'tara olmaydi.



Bunday qonli amaliyot barcha dikta-torlarga xos va "O'rmon" she'ridagi kabi kesilgan daraxtlar — chinor va archalar kesilgan boshlarga, juvonnarg etilgan salohiyatli shaxslarga ramz bo'la oladi. Tirik qolgan to'nkalar esa jamiyatni jarga yetaklaydi.

3.

So'zim boshida Rustam G'ani puxta shoir deganimni asoslash uchun uning "O'rmon" she'riga batafsilroq to'xtal-dim. Shoirning shu singari puxta-pishiq she'rlari talaygina, qavs ichida "hazil aralash" deb qo'yilgan "Uyi kuygani-da Tilak Jo'raning o'zi kuygani yo'q" (tashbehning aniqligini ko'ring!) deb boshlanadigan she'rda chindan ro'y bergan hodisa asnosida Tilak Jo'raning Yer o'lchovlariga sig'mas g'ayrioddiy tiynati aniq chizgilar-la chiziladi: "Xo'ja Nas-riddindek qahqaha urar, Uyi yonganini eslagan onda". Yoki Ramazon qo'shig'i ("Payg'ambarning o'n bir o'g'li bor edi...") ohangida yozilgan "Mo'ysafidning uchta o'g'li bor edi" deb boshlanuvchi she'rda kampiri vafot etib, yolg'iz qol-gan qariyaning mahzun holatini chizar ekan, shunday misralar bitadi: "Tirik jonga bor mehrini ulashib, kelinchak kun og'ushini ochadi". Uzoq zim-ziyo tundan bezgan yolg'iz qariyaga kunduz jo'shqin yoshligini yodga solib, kelinchak bo'lib ko'rinsa, ne ajab.

Rustamning sevimli shoirilaridan biri Sergey Yesenin tarjimai holini yozib tu-gallari ekan, qolgan she'rlarimadadi, deb yozib qo'yadi. Rustam haqida ham shun-day deysish mumkin. Ayniqsa "O'g'lim Sherzodga" deb bag'ishlov qo'yilgan "Tilak" she'ri uning ijodiy biografiya-sini o'rganishda juda muhim. Bir bandni to'liq keltiramiz:

Burgut edim, qanotimni  
qayirdi g'anim,  
Bor quvvat-u'jur'atimdan  
ayirdi g'anim,  
Qani o'sha yovqurligim,  
g'ayratim qani?  
Kuch-qudratga to'lib-toshgan  
er bo'lg'in, o'g'lim,  
O'tajoning baxtiga sen sher  
bo'lg'in, o'g'lim.

Ushbu g'amgin misralar va butun she'r Rustam ancha katta potentsialga ega bo'laturib, nega so'nikib qolganiga bir qadar oydinlik kiritadi. Lekin hayot davom etadi, Navoiy hazratlari "Nazm ul-javohir" asarida yozganidek, yaxshi odamlar "Avqot xazonini(xazon mavsumini) bahor ayladilar". Burgutning qanoti qayrilsa-da, sinmasa bas, u yangi kuch olib mag'rur parvoz qilaveradi. Qanoti qayrilsa-da, burgut burgutdir. Yarat-gan ato etgan ma'naviy kuch-quvvat kuni kelib o'zini namoyish etishi, burgut bur-gutligini isbot etishi zarurdir. Hamma gap ijoddan to'xtamaslikda.

Balki Rustam G'ani yaqin kelajakda "Qanoti qayrilgan burgut" nomli doston yozar (yoki roman), unda ushbu foje ja-rayonni to'laligicha badiiy ochib berar. Shunda kamina ham shu nomda ikkinchi maqolani yozarman.

G'allaorol Baxmalsoyidan uchirma bo'lgan burgut qanotini rostlab yangi ijodiy cho'qqilarni zabt etsa, ne ajab.

2020, yanvar

**Eslatma:** Ushbu maqola yozilga-nida shoirilar Azim Suyun ham, Rustam G'ani ham hayot edi. Oxiratlari obod bo'lsin!

## Kutubxona



Biokimyo va molekulyar biologiya fanlarining mustaqil fan sifatida oliy ta'lim muassasalarining bo'lajak biolog, shifokor, farmatsevt, biotexnolog, veterinar, zootexnik yo'nalishlari talabalariga o'qitilishi, ayniqsa, uning davlat tilida o'qitilishining samarali tashkil qilinishi, yoshlarning kasbiy jihatdan malakali mutaxassis sifatida shakllanishlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu sohada o'zbek biokimyogarlarning ustozlari, O'zRFA qoshidagi Biokimyo ilmiy-tekshirish institutining asoschisi, Davlat mukofoti sohibi, akademik Y.To'raqulov tomonidan yaratilgan dastlabki "Biokimyo" darsligi zabardast biokimyogar shogirdlar va xalq xo'jaligining xilma-xil sohalari uchun yuqorida nomlari keltirilgan kasb egalari armiyasini yaratish uchun xizmat qilib keldi.

## Yangi darslik — yangi marralar

Fanlarning zamonaviy rivojlanish da-rajasi bu fan bo'yicha erishilgan yutuqlar, uning boshqa fanlar bilan aloqasi tufayli paydo bo'lgan imkoniyatlarni hisobga ol-gan holda ma'ruza, laboratoriya va ama-liy mashg'ulotlar o'tkazishni, o'tkazganda ham ularni yuqori saviyada olib borishni taqozo qiladi. Mana shu jihatlarini e'tibor-ga olib, SamDU biologiya fakulteti pro-fessori, biologiya fanlari nomzodi, xalq ta'limi a'lochisi, umrining oltmish yildan ko'prog'ini mana shu sohani o'rganishga bag'ishlagan Mars Safin oliy ta'lim muas-sasalari biologiya fakultetining 5140100 – Biologiya, 5320500 – Biotexnologiya yo'nalishlari talabalar, magistrantlar, mustaqil tadqiqotchilar, mutaxassis pro-fessor-o'qituvchilar va tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalar uchun mo'ljallan-gan "Biokimyo va molekulyar biologiya" nomli darsligini o'zbek va rus tillarida Sa-marqand davlat universiteti nashriyotida chop ettirdi.


Ushbu fanning mustaqil fan sifatida Yevropa oliy ta'lim muassasalarida o'qi-tila boshlanganiga yuz ellik yildan ortiqroq vaqt o'tgan bo'lsa-da, ammo uning dastlabki tamal toshi buyuk qomusiy olim, Sharq tibbiyot ilmining asoschisi Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari bilan qo'yilganligidan hammaning ham xabari bo'lmasa kerak. Buyuk bobokalonimiz ushbu asarida inson salomatligini tiklash va saqlashda tabiat in'omi bo'lgan dorivor o'simliklar, dorivor moddalarning naqa-dar katta o'rni borligini alohida ta'kidlab

qolmasdan, ulardan amalda bemorlarni davolash jarayoni-da foydalanish bo'yicha ham nodir fikr-mulohazalar, ilmiy xulosalar va qimmatli ko'rsat-malarni yozib qoldirgan. Sharq-u G'arbda katta shuhrat taratgan bobokalonlarimiz Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy kabi birinchi uyg'onish davri allomalarining lotin tiliga tarjima qilingan o'nlab ilmiy asarlari bilan tanish-gan G'arbning tibbiyot va tabiatshunoslik bilan shug'ullana boshlagan olimlari to-monidan qariyb ming yildan so'ng inson tanasi, uning a'zolari, ularning vazifalari, inson tanasidagi ichki biologik va kim-yoviy jarayonlarni laboratoriya sharoiti-da o'rganishlari asosida "Tibbiy kimyo", "Fiziologik kimyo" nomlari ostida o'qi-tila boshlangan bugungi "Biokimyo" faniga asos solindi. O'n to'qqizinchi as-rning boshlariga kelib, rus olimi K.Kirgof tomonidan arpa maysasi ekstrakti krax-malning shakarga aylanishini ta'minlovchi fermentativ jarayonning fanga ma'lum qilinishi, Y.Libixning hayvon va o'sim-lik organizmlarida oqsillar, karbonsuvlar va lipidlar mavjudligini isbotlab berishi, A.Kolbe, M.Bertlo, A.Butlerovlar labora-toriya sharoitida siydikchil, sirka kislotasi, yog'lar, glyukoza kabilarni sintez qilish-lari, D.Paster tomonidan moddalarning achishi, biyg'ishi oddiy achiq yordamida kechadigan biokimyoviy jarayon ekanli-gining ko'rsatib berilishi bu fanning tara-q-

qiyoti va kelgusida barq urib rivoj topishi-ga katta turtki bo'ldi.

Biokimyo fanining keyingi tara-q-qiyotida taniqli xorijlik olimlar qato-rida O'zbekistondan yetishib chiqqan Y.To'raqulov, O.Sodiqov, A.Ibrohi-mov, T.Soatov, shuningdek, professorlar L.Lapin va M.Rishlar tomonidan yaratil-gan Samarqand biokimyogarlari maktabi vakillarining ham munosib hissasi bor.

Biokimyoning insoniyat uchun fan sifatidagi ahamiyati uning tibbiyot, gen muhandisligi, biotexnologiya, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, o'rmon xo'jaligi va boshqa qator sanoat sohalari kabilar-ni nazariy asoslaridan biri ekanligi bilan ham belgilanadi. Insonlarda ko'plab pa-



tologik holatlar kelib chiqishining asosiy sababi ham ular tanasida kechadigan biokimyoviy jarayonlarning izdan chiqishi bilan bog'liq. Patologiyaning molekulyar asoslarini chuqur bilmadan turib biror-bir kasallikka na diagnoz qo'yish, na davo-lash va na ularning oldini olish mumkin. Biokimyoviy jarayonlar va ko'rsatkichlar oziq-ovqat sanoatida xilma-xil texnologiyalar: non pishirish, pishloq, vino, pivo tayyorlash, choy, yog' va moy ishlab chiqarish, sut, go'sht va baliqni qayta ish-lash, meva va sabzavotlarga ishlov berish, kraxmal va shinni ishlab chiqarish kabilar-ni ham asosidir. Teri mahsulotlari ishlab chiqarishni muvaffaqiyatli tashkil etish, yuqori sifatli mo'ynali kiyimlar ishlab chiqarish va tabiiy ipakni qayta ishlash bilan bog'liq sanoat tarmoqlari ham biokimyoviy bilimlarni chuqur bilishni talab etadi. Xulosa qilib aytgan-da, professor Mars Safinning "Biokimyo va molekulyar biologiya" nomli darsligi biologiya, fiziologiya, genetika, biotex-nologiya, gen muhandisligi, umumiy va amaliy enzimologiyalarga doir va ko'plab boshqa fanlarning erishgan so'nggi yu-tuqlarini inobatga olgan holda yaratilgan-ligi bilan ham katta ahamiyatga egadir.

Mardon BOLTAYEV,  
SamDU dotsenti

## O'qituvchining kitobi

## Bolalikka oshno qalb



O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev:

"Bolalarning ko'nglidan joy olmoqchi bo'lgan ijodkor hech qachon ularni aldamaydi. Rost, samimiy, ishonarli yozadi..." , degan edi.

Jizzaxlik mohir pedagog, jonkuyar muallim, zahmatkash shoir Ro'zimurod Bolqiyev ustozining o'g'itlariga amal qilib, izlanayotgan shoirlardan. Uning "Har nening o'z tili bor", "Zuk-kolarga eslatma" kitoblarini mutolaa qilib chiqqan. Shunga amin bo'ldimki, bolalar adabiyotining quyoshi yanada porloq nur so-cha boshlayapti. Chunki mana shu nazm saltanatiga Ro'zimurod akadek so'z zargarlari kirib kelmoqda.

Ustoz shoirimiz Tursunboy Adashboyev: "Juda ko'p iqtidor egalari chekka-chekka hududlarida yashab ijod qilyapti. Ularni izlab topish va to'g'ri yo'lga solish bizning vazifamizdir", de-

gan edi. Ro'zimurod

Bolqiyev allaqachonlar katta yo'lga chiqqan va borar manzilini aniq biladigan shoirlarga aylanib ulguragan. O'zbekiston yozuv-chilar uyushmasi a'zosi, shoir Dilshod Rajab ta'biri bilan aytgan-da, Jizzaxning Mirzacho'l tumanida "Yaxshigina shoir bolalar adabiyotiga shahd bilan kirib kelmoqda". Shiddatli shoirimizga omadlar tilayman. Ijod yo'li samarali bo'lsin.

Soyib MIRZO,  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,  
shoir





# “Ma'rifat” repetitori

## Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 8-varianti

### ONA TILI

1. Shavqatsiz, na'muna, tatbiq, qo'llamma, kesdir, qayiril(moq), inshoot, mezon, mammanlik, tamal, sumbul.

Ushbu so'zlardan nechitasi to'g'ri yozilgan?

- A) 3 tasi B) 5 tasi  
C) 7 tasi D) 4 tasi

2. Qaysi antonim juftlik xato berilgan?

- A) salbiy – ijobiy B) oldingi – hozirgi  
C) ilg'or – qoloq D) o'tmish – moziy

3. Quyidagilardan qaysi biri ajratib yozilmaydi?

- A) Ko'hna//Urganch B) G'arbiy//Yevropa  
C) Sari//osiyo D) Markaziy//Osiyo

4. Qaysi so'zda urg'uning ko'chishi bilan so'z ma'nosining o'zgarishi kuzatilmaydi?

- A) yangi B) kitob  
C) hozir D) gullar

5. Chiroylidir go'yo yosh kelin, Ikki daryo yuvar kokilin.

Qorli tog'lar turar boshida, Gul vodiylar yashnar qoshida... (H.Olimjon)

Ushbu parcha matn maqsadiga ko'ra qaysi turga mansub?

- A) hikoya matni B) she'riy matn  
C) tasviriy matn D) muhokama matni

6. Quyidagilardan qaysi biri ko'makchi fe'l vazifasida kelsa, harakatning davomiyligini bildiradi?

- A) chiqmoq B) yubormoq  
C) turmoq D) qo'ymoq

7. Ammam ko'rpa-yosti, amakim qozon-tovoq, boshqa tanish-bilishlar choynak-piyola deganday, har kim baholi qudrat qarashib, o'sha hovliga ko'chdik (Abdulla Qahhor).

Ushbu gapda necha o'rinda juft otlar ishtirok etgan?

- A) 4 o'rinda B) 2 o'rinda  
C) 5 o'rinda D) 3 o'rinda

8. Qaysi qatorda olmosh uslubiy jihatdan so'zlovchining gapda o'zini ta'kidlamaslik ma'nosini ifodalagan?

- A) Siz keldingiz. B) Iloji bo'lsa, unga bildirmaylik.  
C) Sizlarga doimo baxt yor bo'lsin. D) Biz g'olib chiqdik.

9. Qaysi qatordagi ko'makchilar jo'nalish kelishligi shaklidagi ismlarga qo'shiladi?

- A) kabi, singari, uchun, sari B) ko'ra, qaramay, yarasha, asosan  
C) bo'lak, boshqa, o'zga, tashqari D) buyon, oldin, sayin, bo'ylab

10. Ular besh kishidan iborat edi.

Ushbu gapning kesimi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) iborat edi B) Ular besh kishidan iborat edi  
C) besh kishidan iborat edi D) kishidan iborat edi

11. Mening o'z muhabbatim bor – toza va musaffo!

Ushbu gapda tire ishlatilishi sababi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

- A) bog'lovchisiz qo'shma gap bo'lgani uchun  
B) umumlashtiruvchi so'z borligi uchun  
C) ajratilgan bo'lak uyushib, gap oxirida kelgani uchun

D) kiritma qo'llangani uchun

12. Qaysi qatorda ergashgan qo'shma gap berilmagan?

A) Do'stlikdan o'tadigan hech narsa yo'q, shuning uchun do'st orttirish imkoniyatini sira qo'ldan boy bermam.

B) O'zingga do'st tanla, chunki bir o'zing baxtli bo'lolmayсан.

C) To'g'ri so'z qilichdan o'tkir, shuning uchun hamisha rost so'zlashga odatlan.

D) Yaxshi fikr tiniq uslubni talab qiladi, uslub esa fikr libosidir.

13. Quyidagi boshliq so'zining sinonimlaridan qaysi biri eskirgan bo'lib, kitobiy uslubga xos?

- A) peshvo B) sarkarda C) xo'jayin D) yo'lbo'shchi

14. Traktor va mashinalar yelday uchadi.


Ushbu gapda nutqning mantiqiylik sifatini buzgan so'z qaysi?

- A) mashina B) uchadi C) traktor D) yelday

15. Qaysi qatordagi iboralar sinonim juftlik hisoblanmaydi?

- A) avzoyi buzilmoq – kayfi buzilmoq  
B) ichidan pishgan – tomdan tarasha tushganday  
C) kun og'di – qosh qoraydi  
D) yer bilan yakson bo'lmoq – kuli ko'kka sovrilmoq

G'anisher HAQNAZAROV,  
Xatirchi tumanidagi 1-maktab o'qituvchisi



### MATEMATIKA

16. Hisoblang:  $(-1)^2 + (-2)^3 + (-3)^2$

- A) 14 B) -14  
C) 2 D) -36

17. Qirg'oqdan bir vaqtda qarama-qarshi yo'nalishlarda ikkita kater chiqdi. Birinchi katerning tezligi 30 km/h, ikkinchisini esa 40 km/h ga teng. Ular orasidagi masofa qancha vaqtdan keyin 210 km ga teng bo'ladi?



- A) 3 B) 4 C) 2 D) 5

18. Suv solingan idishdan 50% suv olindi, so'ngra yana qolgan suvning 20% i olindi. Idishda necha% suv qoldi?

- A) 30 B) 18 C) 40 D) 15

19.  $240 = \frac{4}{5} \cdot 3$  shu ma'lumotlar asosida

● ▲ ■ larning yig'indisini toping.

- A) 5 B) 4 C) 3 D) 6

20. Hovuzga ikkita quvur o'tkazilgan. Ulardan biri hovuzning yuqori qismida va u hovuzni 3 soatda to'ldiradi. Ikkinchisi hovuzning tubida va u to'la hovuzni 4 soatda bo'shatadi. Agar ikkalasi bir vaqtda ochib qo'yilsa, bo'sh hovuz necha soatda to'ladi?

- A) 12 B) 10 C) 6 D) 24

21. Komronbekdagi kitoblarning 0,3 qismi dasturlashga oid kitoblardir. Bu ulushni foizlarda ifodalang.

- A) 3% B) 30% C)  $\frac{1}{3}$ % D) 0,3%

22. Quyidagi ko'paytmalardan qaysi biri 45 ga goldiqsiz bo'linadi?

- A)  $15 \cdot 38 \cdot 23$  B)  $40 \cdot 52 \cdot 16$   
C)  $75 \cdot 49 \cdot 18$  D)  $15 \cdot 16 \cdot 332$


23. Soatning mili 15 minutda necha gradusga buirladi?

- A) 120 B) 20 C) 90 D) 10

24. Rasmda ko'rsatilgan har bir uchburchakning og'irligi

200 gramm bo'lsa, doira og'irligini toping.

- A) 500 gr B) 400 gr  
C) 150 gr D) 200 gr



25. Do'konga 50 tonna karam keltirildi. Agar karamning 40% i sotilgan bo'lsa, do'konda necha tonna karam qolgan?

- A) 10 B) 20 C) 24 D) 30

26. Eng kichik besh xonali son eng katta to'rt xonali sondan nechtaga katta?

- A) 1 B) 9999 C) 456 D) 1000

27.  $\frac{8}{18} + \frac{2}{32} + \frac{33}{45} = a$  bo'lsa,  $\frac{8}{18} + \frac{2}{32} + \frac{33}{45} = a$  ning

qiymatini toping.

- A) 2-a B) 3-a C) 4-a D) a-4

28. Hisoblang:  $\frac{1}{5 \cdot 6} + \frac{1}{6 \cdot 7} + \frac{1}{7 \cdot 8} + \dots + \frac{1}{34 \cdot 35}$

- A)  $\frac{31}{180}$  B)  $\frac{13}{90}$  C)  $\frac{37}{360}$  D)  $\frac{6}{35}$

29. 59 ni bo'lganda, qoldiq 9 chiqadigan barcha natural sonlar yig'indisini toping.

- A) 50 B) 55 C) 60 D) 85

30. Quyidagi kasrlarning qaysilari chekli kasrlar:

- $\frac{3}{4}$ ;  $\frac{5}{17}$ ;  $\frac{3}{13}$ ;  $\frac{12}{25}$ ;  
A)  $\frac{3}{4}$ ;  $\frac{5}{17}$ ; B)  $\frac{3}{13}$ ;  $\frac{5}{17}$ ; C)  $\frac{3}{4}$ ;  $\frac{12}{25}$ ; D)  $\frac{3}{13}$ ;  $\frac{12}{25}$ ;

Hamza XUDOYBERDIYEV,  
G'ijduvon tumanidagi 32-maktab o'qituvchisi



# “Ma'rifat” repetitori

## Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 8-varianti

### O'ZBEKISTON TARIXI

31. Temirdan birinchi bo'lib qaysi xalqlar foydalanib boshlaganlar?

- A) hindlar B) xetlar  
C) misrliklar D) xitoyliklar

32. Zardushtiylilik dinidagi Quyosh va yorug'lik xudosi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) Anaxita B) Ahriman  
C) Mitra D) Ahuramazda

33. 1137-yilda Xo'jand shahri yaqinida qaysi davlatlar o'rtasida jang bo'lgan?

- A) Qoraxoniylar va Qoraxitoylar davlatlari  
B) G'aznaviylar va Xorazmshohlar davlatlari  
C) Xorazmshohlar va Qoraxitoylar davlatlari  
D) Qoraxoniylar va G'aznaviylar davlatlari

34. Abu Mansur al-Moturudiydan bizga nechta asar saqlanib qolgan?

- A) 2 ta B) 4 ta  
C) 8 ta D) 10 ta

35. Quyidagi qaysi hukmdorning nomi Hindistonda xutbaga qo'shib o'qilgan?

- A) Jaloliddin Manguberdi B) Mironshoh  
C) Tug'luq Temur D) Sobuqtegin

36. Qo'qon nechanchi yilda mustahkam devor bilan o'rab olingan?

- A) 1832-yil B) 1842-yil  
C) 1840-yil D) 1845-yil

37. Qachonda boshlab Shayboniylar davlati Buxoro xonligi deb atala boshlandi?

- A) 1583-yildan B) 1556-yildan  
C) 1533-yildan D) 1536-yildan

38. Quyidagi qaysi shoir dinga shak keltirganlikda ayblanib, g'animlarning ig'vosi bilan o'limga hukm qilinadi?

- A) Mashrab B) Maxmur  
C) Turdi Farog'iy D) Gulxaniy

39. Muhammad Sadr madrasasi qaysi shaharda qurilgan?

- A) Toshkent B) Hirot  
C) Samarqand D) Buxoro

40. “Boburnoma” asarida qaysi shahar “Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidin so'ngra mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur”, deb e'tirof etilgan?

- A) Andijon B) Namangan  
C) Toshkent D) Hirot

41. O'rta Osiyo olimlar jamiyati qachon tashkil etilgan?

- A) 1867-yil B) 1870-yil  
C) 1871-yil D) 1895-yil

42. Rus qo'shinlari tomonidan Turkiston shahri-ning osonlik bilan egallanishiga olib kelgan omil nima edi?

- A) amirlashkar Alimqulning yaralanib vafot etishi va shahar mudofaasini tashkil eta oladigan sarkardaning yo'qligi  
B) Turkistonni suv bilan ta'minlab turgan daryo suvining boshqa tomonga oqizib yuborilishi va shahar-ning suvsiz qoldirilishi

C) N.Veryovkinning Turkiston taslim bo'lmasa, shahardagi muqaddas qadamjolar va Ahmad Yassaviy maqbarasini to'pga tutishini bildiruvchi tahdidi

D) yordamga kelayotgan Buxoro amiri qo'shinlari-ning kechikishi

43. “Tarixi Turkiston” asarining muallifini aniqlang.

- A) Yusuf Bayoniy B) Muhammad Solih  
C) Ahmad Donish D) Mulla Olim Maxdum hoji

44. XX asr o'zbek kinematografiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan ijodkorlarni toping.

- A) Yahyo G'ulomov B) Rahim Pirmuhammedov  
C) Mannon Uyg'ur D) Abror Hidayatov

45. 2017-2018-yillarda Qashqadaryo viloyatida quyidagi qaysi ijodkorning xotirasini abadiylashtirish bo'yicha tadbirlar o'tkazilgan va uning nomi bilan atalgan markaz, ijod maktabi ochilgan?

- A) Erkin Vohidov B) Is'hoqxon Ibrat  
C) Muhammad Yusuf D) Abdulla Oripov

Jalol BOLTAYEV,

Urganch davlat universiteti magistranti

### ONA TILI

| S | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|----|----|----|----|----|----|
| J | D | D | C | B | C | C | A | D | B | B  | C  | D  | A  | C  | B  |

### MATEMATIKA

| 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 | 28 | 29 | 30 |
|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|
| C  | A  | C  | B  | A  | B  | C  | C  | B  | D  | A  | C  | D  | D  | C  |

### O'ZBEKISTON TARIXI

| 31 | 32 | 33 | 34 | 35 | 36 | 37 | 38 | 39 | 40 | 41 | 42 | 43 | 44 | 45 |
|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|
| B  | C  | A  | A  | A  | B  | C  | A  | C  | A  | C  | C  | D  | B  | D  |

## Fizikaga mehr uyg'onib...

Fan va hayot

Maktabda ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchiman. She'r yozishga qiziqishim bois ishim o'zimga yoqadi. Doim maktabda ijodiy muhit yaratishga intilaman. O'quvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsataman.

Kunlarning birida fizika fani o'qituvchisi o'z kasbi haqida maqola yozgani, shuni bir ko'zdan kechirib, gazetada chop etilishiga yordam berishimni so'radi. Uning sohasi haqidagi batafsil bayon etgan fikrlari menda fizika faniga qiziqish uyg'otdi. Shu paytgacha fizika murakkab fan deb o'ylardim. U kundalik hayotimizda biz bilan birga yashab kelayotganini sezmay yurarkanman. Har qadamimiz harakat bilan bog'liq. Insonning tug'ilishidan to hayoti tugagunga qadar qancha qadam bosgani ham fizikaga doir jarayonligi xayolimga ham kelmasdi.

Rahmatli otam rassomchilik institutiga imtihon topshirganida Nyutonning ikkinchi qonuni savol bo'lib tushgan. Dadam bu qonunni bilmagani uchun sinovdan



o'tolmagan. Shu boisim, ko'pincha barchamiz jam bo'lgan paytlari bizga shu qonunni takror va takror aytardi. Uning formulasi:  $F=ma$ . Nima uchun dadam uni doim takrorlab yurishiga e'tibor bermay, faqat ichimizda yoddardik. Maktabda ham o'qituvchimiz o'rgatgandi. Ammo fizika-

ga qiziqishim bo'lmagani sabab uni to'liq anglab yetmaganman. Aslida esa har bir kunimiz fizika qonunlari bilan bog'liq ekan-u, bilmay yurgan ekanmiz.

Masalan, energiya deganda tokni tushunamiz xolos. Mana shu energiya odam tanasida ham mavjud bo'larkan. Yuguramiz, ishlaymiz. Bu harakatlar fizikada mexanik ish deb atalib, bu paytda inson o'zidan issiqlik energiyasini ajratarkan.

Arximedning “Evrika” deb cho'milayotgan vannasidan yugurib ketishini tasavvur qilsam yuzimga tabassum yuguradi. Bu voqeani xuddi ertakdek qabul qilamiz. Xo'sh, u vannada o'tirib Arximed kuchini qanday kashf etdi?

Kunlarning birida podshoh Arximedni huzuriga chaqirib, o'z oltin tojining hajmini o'lchashni buyuradi. Arximedga uch kun muddat beriladi. Agar shu vaqt mobaynida javobni topmasa o'limga mahkum etilishini aytishadi. Arximed o'limidan oldin vannaga tushmoqchi bo'lib, suvga asta-sekin joylashib o'tirib olgach, qo'lga podshoh tojini ola-

di. Toj og'irligidan birdan qo'lidan suvga tushib, vannaning tashqarisiga suv toshib chiqib ketadi. Shunda tashqariga oqib ketgan suv tojning hajmiga teng ekanligini anglagan Arximed podshoh qo'ygan masalaning yechimini topganidan xursand bo'lib, “Evrika” deya vannadan sakrab tashqariga yugurib ketadi.

Endi agar Arximed vannada tojni qo'lga olmaganida ahvoli nima kechishini bir o'ylab ko'ring. Balki u o'limidan oldin shu tojni kiyib o'lsam armonim yo'q degan fikrni xayolidan o'tkazdimikan?..

Ha, fizika fani mana shunday g'aroyibotlarga boy. Nyuton ham daraxtning tagida dam olib yotganida boshiga olma tushgan va shu tariqa yerning tortishish kuchini kashf etgandi. Bunga qadar olma faqat Nyutonning emas, hammaning ham boshiga tushgan, ammo buni faqat sezgir Nyuton kashf etgan. Fizika fanidagi kashfiyotlar xuddi ertakdek. Aytsa ishonmaysan kishi. Shunday qilib, butun dunyo bosh eggan, sir-sinoatlarga to'la fizika faniga mehrim uyg'ondi.

Aynagul BAYMURATOVA,

Qorao'zak tumanidagi  
2-IDUM ijodiy-madaniy masalalar  
bo'yicha targ'ibotchisi



(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)

— Ha, undan so'radim, "Bizda pul nima qiladi, aka", deb javob berdi. Uch kun qatnab, qabuliga zo'rg'a kirgandim. Mayli, qizim, o'kinma, mehribon Olloh bir yo'lga boshlar.

Shu payt eshik taqilladi. Avval Hulkar "oyim keldilar shekilli", deya tashqariladi. Maqsud aka ham qizining ortidan chiqdi. Ko'cha eshik oldida tanish mashina turardi. Maqsud aka "Murod so'zining ustidan chiqib, vaqt allamahol bo'lsa-da, kasalxonaga kelibdi-ya", deb o'yladi, ich-ichidan bu yigitdan minnatdor bo'ldi. Mashinadan Maqsud opa va uxlab qolgan qizalog'ini ko'tarib olgan oilaning to'ng'ichi — Zokirjon tushdi. Maqsud opa turmush o'rtog'iga shu yerning o'zidayoq barcha yangiliklarni yetkazdi:

— Katta do'xtirlar kelishdi, ertaga qayta operatsiya qilisharkan. Bu yoqda Mohira ham qattiq kuyib qolibdi. Kelin qizi bilan kasalxonada. Zokirjon qizini men bilan qoldirib, "Uyda hech kim qolmasdi, o't-olov bor, boraqolay", deb turibdi. Murodjon baraka topsin, ilohim, Xonobodga o'zim tashlab qo'yaman, deyapti. Shundog'am sizni ko'p urintirdik, qo'yaqoling, desam ham unamayptilar... Xo'p desangiz, siz ham bularga hamroh bo'lib keta qoling.

Maqsud aka "Shunday qilsak, ma'qul bo'ladi. Ertaga tongda kasalxonada uchramiz", dedi-yu, mashinaning old o'ringiga o'tirdi. Yo'lga tushishgach, o'rtaga jimlik cho'kdi. Murodjon shu tobda Maqsud akaga dalda berishni, biror yordam taklif etishni juda istardi, lekin gapni nimadan boshlashni bilmasdi. U ustoziga bir qarab oldi-da: ohista so'zldi:

— Qayg'urmag, ustoz, hammasi yaxshi bo'ladi. O'ylab qarasam, ketma-ket tashvishning tagida qolib ketibsiz. Xudo xohlasa, yaxshi kunlaringiz hali oldinda...

Maqsud aka tunni juda behalovat o'tkazdi. Ko'zini yumdi deguncha, qizining katta-katta ko'zlari o'ziga iltijo bilan tikilib yotgani ko'rinar, chiroq dam-badam o'chib-yonar, xonada xuddi birov yurgan-dek o'g'ri sharpalar ko'rinar, bular tushida u o'ngida bo'layotirmi, o'zi ham ang'olmasdi. Sahar payti bosinqirab, dodlab uyg'onib ketdi. Zokirjon qo'shni xonadan yugurib chiqdi. Maqsud aka o'g'li keltirgan bir piyola suvni ichdi-yu, holsizlanib, yana o'ringa cho'zildi...

Murod erta sahar mashinasida yetib keldi. U bugungi barcha yumushlarini keyingacha qoldirib, ustozni oilasiga xizmat qilishga bel bog'lagandi. Avval Shoista yotgan kasalxonadan xabarlashib chiqishdi. Keyin Ko'kcha tomondagi kasalxonaga yo'l solishdi. Besh yoshli Mohira hamma yog'i bog'langan ahvolda yotardi. Oyog'ining terisidan olib, o'ng qo'lining kuygan joylariga solishibdi. "Xayriyat, yuz-ko'zlari omon ekan. Qiz bola-da, aybli bo'lib qolsa... Olloh o'zi bir asrabdi-da...". Maqsud aka sevimli nabirasining yonida uzoq vaqt jim o'tirib qoldi. So'ng o'rnidan turdi-da, ohista nabirasining peshonasidan o'pib xayrlashdi.

Kasalxonaga yetib kelishganda operatsiya boshlanganiga yarim soat bo'lgan ekan. Bir zamon Maqsud akaning ko'zi tanish chehraga tushdi. Axir bu mahalladoshi, jarroh-shifokor Ilyos aka-ku, sinfdoshi Ismatning akasi. U Maqsud akaning yoniga shoshganicha kelib, vaziyatni tushuntirdi:

— Hammasidan xabarim bor, lekin birinchi operatsiyada maslahat berishga kechikib qoldim. Operatsiyani Farhod qilgani chakki bo'libdi-da... Aslida u qirq kundan buyon operatsiyaga qo'yilmayotgandi. Uning o'z "qaddron"lari bor, o'z shalar sizga tavsiya qilgan, shekilli. Hammasi yaxshi bo'ladi, siqilmang. Tajribali, qo'li yengil professor qiladi bugungi operatsiyani, xavotir olmang. Hozir xabar olib chiqaman.

Shu mahal chiroq o'chib qoldi. Maqsud akaning rang-quti o'zgarib, tanasidan joni chiqayozdi. Maqsud opa allaqayo-

qqa yugurib ketdi. Zokir jarrohlik bo'limi eshigiga borib-kelaverar, ikki ko'zi otasida edi. Xayriyat, chiroq uch-to'rt daqiqada yondi. Dvijok ishga tushib ketdi. "Yaxshiyam chorasini ko'rib qo'yishgan ekan!" — hammaning xayolidan shu o'y o'tidi. Chiroq o'chishi bilan kimdadir telefon qila boshlagan Murodning ham chehrasi yorishdi. Bir soat chamasi vaqt o'tgach, jarrohlik bo'limidan Ilyos aka chiqib keldi:

— Hozircha hammasi yaxshi ketyapti. Ichakka olti yerdan ilmoq tushib, siqib qo'ygan ekan. Birinchi operatsiyada jarroh beshtasini olgan-u, oltinchisini ko'rmay yopib qo'ygan. Natijada 80 santimetr ichak olti kun davomida ishlamagan. Chirish jarayoni boshlanibdi, basharti, shu bugun operatsiya qilinmaganda, yorilib ketishi aniq edi. Ichakning chirigan qismini kesib tashlab, qayta ulashdi. Hozir tikish boshlandi. Hademay chiqib qolishar.

Hamma tin oldi. Maqsud aka Murodni bir chetga tortdi:

— Ishlarimiz yaxshi tomonga og'di, Xudo xohlasa. Murodjon, sizdan yashi-

Shu kuni olis yurtida xizmat safarida yurgan kuyovi Yormat ham kelib qoldi. U Shoistaning bir-ikki oy ota uyida turib, quvvatga kirib olishiga monelik qilmadi. Qizining qaynonasi uch bola bilan ovora. Ulardan gina yo'q. Shoista olti oy deganda bolalarining bag'riga qaytdi. Hulkar "Dadanga harna yordam bo'lsin", deya tarjima uchun ish olar, bundan tashqari, tadbirlarda tarjimonlik ham qilardi. Harakatda barakat bor, deganlaridek, qizi tushmagurning mehnati besamar ketmadi, olti-yetti oyda otasining qo'lga ming dollari tutqazib: "Dadajon, buni Murod akaga tezroq yetkazing", dedi. Maqsud aka: "Baraka top, qizim, ildim ziyoda bo'lsin!", deya uning peshonasidan o'pdi. O'zi ham pulni tezroq egasiga topshirib qiyomat qarzdin qutulishni istardi.

Shu kunioyq Murodga bir necha bor qo'ng'iroq qilib bog'lana olmagach, uni so'roqlab "Ikar" stansiyasiga bordi. Bori-yu, yomon xabarni ustidan chiqib, es-hushi boshidan uchdi. Shu kuni ertalab stansiyada falokat yuz bergan ekan: bir vagonning zanjiri uzilgan, bundan bexa-

— Yaxshi, men professorga bir uchrashay-chi, balki biror yordamim tegib qolar.

Shu tobda g'oyibdan bo'ldimi yoki o'zi juda ardoqlagan insonning bu ahvolda tushganidan aql-u shuuri junbushga kelganidanmi, Maqsud akaning miyasiga bir fikr urildi. "Ollohim, meni gunohkor bandalarining sanamagin, O'zing ko'nglimga solding! Haj qilish niyatim bor edi. Shu ishimni mening haj ibodatim o'rnida qabul qilgaysan! Onajon, ruhingiz meni qo'llasin! Bergan oq sutingizga rozi bo'ling! Ushbu ishimning savobini sizning, otamning ruhi poklariga bag'ishlayman. Yaqinlarim, meni tushumlariga va kechiringlar! Shunday qilmasam, ikki dunyo o'zimni kechirmasman..."

Bu botiniy xitoblari Maqsud akaga kuch bag'ishlab, o'z qarorida yana-da sobitlandi. Kerakli xona eshigini ochib, professor A'zamxo'jayevning rentgen tasvirlarini ko'zdan kechirayotganini ko'rdi. Maqsud aka xonaga tortinmay, dadil kirib borar ekan:

— Kechirasizlar, bemor Murod To'ychievning yaqinlaridanman. Men... Men buyragim hamda Murodjonga zarur bo'lgan boshqa a'zolarimni hoziroq unga berishga tayyorman, ya'ni donorlikka roziman! Iltimos, bir ilojini toping, toki bolalari yetim bo'lib, chirqirab qolmasin. Mening boshqa istak va talabim yo'q. Qog'oz bersangiz, tilxat yozsam, — dedi. Uning ovozi biroz qaltirayotgan bo'lsa-da, qati'yati yaqqol sezilib turardi. Hamma hang-u mang bo'lib qoldi. Shifokorlardan birining qo'lidagi yondaftri, boshqasining bo'ynidagi stetoskopi yerga tushib ketdi. A'zamxo'jayev qo'lidagilarni xotirjamlik bilan stol ustiga qo'ygach bir chetga surdi-da:

— Easingiz joyidami, birodar?! — deya Maqsud akaga diqqat bilan tikildi.

— Joyida! Kap-katta odamman. Bunday gaplarni behuda gapirmayman.

A'zamxo'jayev shifokorlarga donorni tezlik bilan tibbiy ko'rikdan o'tkazishga topshiriq berdi va o'zi oshiqqancha kerakli mutaxassislardan maslahat olish uchun telefonda raqam terishga kirishdi...

Ertasiga ertalab Maqsud aka oila a'zolari, aka-ukalari bilan kasalxonaga yetib borganida u yerda yigirma besh o'ttiz chog'li odam to'plangandi. U odamlar ichida tanish chehralarni, o'zi bir paytlar bilim bergan talabalarini ko'rdi. Barchasini nomma-nom eslolmasa ham chehralari tanish edi. Professor A'zamxo'jayev Maqsud akaning yoniga borib qo'shqo'llab ko'rishdi. Ma'yus jilmayib "Qo'llaringiz issiqqina, sovuq emas, bu o'zingizga ishonch kuchli ekanidan darak beradi. Qaroringizda hamon qat'iyim siz, birodarim?", deb so'radi. Maqsud akadan "Ha, albat! —" degan javobni olgach:

— U holda Maqsud aka, shogirdlar, yaqinlaringiz bilan xayrlashib, rizolashib oling... Bu yog'iga vaqtimiz juda tig'iz. Bizda hamma narsa taxt. Yarim soatdan so'ng operatsiya stoliga chiqishingiz kerak, — dedi.

Barchaning ko'zida yosh qalqdi. Maqsud opa, Zokirjon, Shoista, Hulkar, aka-ukalari, opa-singillari qatori sobiq talabarlari ham Maqsud akaning yuz-ko'zlari, qo'llaridan o'pib-quchishar, diydoriga to'yib qolish ilinjida yoshli ko'zlari bilan qayta-qayta tikilishardi. Maqsud aka ham barchaga bir-bir tikilar, bag'riga bosar, ba'zan nim jilmayib qo'yardi. Bir chekkadagi kursida ikki bolasini bag'riga bosganicha ho'ng-ho'ng yig'lab o'tirgan Murodjonning xotiniga ko'zi tushdi-yu, taraddudlandi. Maqsud opa opaning yoshli ko'zlariga "Bolalar sizga omonat", degandek ma'nodor boqdi, uning yuzlaridan o'pdi-da, ikki qo'lini ko'ksiga qo'yganicha to'rt tomoniga yengil ta'zim bajo keltirib, professor A'zamxo'jayevga ergashib jarrohlik xonasi tomon ildam yurib ketdi.

# S'nggi Saboq

## Hikoya

radigan joyim yo'q. Shu kunlarda topgan-tutganimizni dori-darmonlarga ishlatib, tugatdik hisob.

Kuyovim uzoqda, qudalar uch nabiramizni eplab o'tirishibdi, shunga ham rahmat. Endi nimamizni sotsam ekan, deb o'ylab yurib edim. Xonobodagi kecha siz ko'rgan hovliga hech xaridor chiqmayapti. O'sha qor-balchiq kechib yurgan kunim meni uchratganingizda azonlab bir yaqinimning, qurbi yetar odamning uyiga qarz so'rab borib, quruq qaytayotganim edi... Ochig'i, iloji bo'lsa, menga qarz berib tursangiz. Oyoqqa turib ketishimizga bir-iki yil muddat kerak. Bu iltimosimni aybga sanamaysiz-da, xo'pmi...

— Ustoz, ahvolingizni ko'rib turibman, sizning qanday odam ekaningizni bilaman. Ertalab uydan chiqayotib, qo'limdagi bor pulimni cho'ntagimaga solib chiqqandim, mana, 1000 dollar pulim bor edi, — Murod shunday deb cho'ntagidan qog'ozga o'ralgan taxlamni Maqsud akaga uzatdi. — Bu yog'ini aslo o'ylamang. Hozir eng muhimi — qizingiz oyoqqa turib, bu og'ir kunlar o'tib ketsin.

— Rahmat, Murodjon, katta rahmat! Og'ir kunimda menga himmat qo'lini cho'zdingiz, yaxshi kunlaringizda qaytaray...

— Endi menga ruxsat. Aslida bugungi barcha ishlarni keyingacha qoldirgandim, lekin ishonadon betimim yo'qlashyapti. Siz bilan xabarlashamiz. Kechki payt kelaman, ustoz, — deya Maqsud aka bilan xayrlashdi. Shundan keyin ham Murod kunda, kunora ustozidan xabar olib turdi...

Shoista asta-sekin o'ziga keldi. U oziq-to'zgan, harakatsizlikdan oyoqlari karaxt bo'lib qolgan edi. Qirq kundan keyin uyga ketishiga ruxsat berishdi. Maqsud opa "Nima qilamiz?" degandek eriga qaragan edi, Maqsud aka gapni qisqa qildi:

— O'zimizning uyga olib ketamiz. Kelin bor, siz bor, harholda, ko'pchilikmiz. Uyida ro'zg'or yumushlari, bola tashvishi, deb urinib qoladi. Butunlay oyoqqa turib ketguncha unga parvarish kerak, dori-darmondan tashqari, alohida parhez qilsin, deyshiyapti-ku. Xudoga shukur, Murodjonning otasiga rahmat, u tufayli hozir Shoistaga yaxshilab qarashga mablag'imiz yetarli.

bar holda vagonning orqasidan kelgan Murod chaqqonlik qilib o'zini chetga otishga ulgursa-da, og'ir shikastlangan. Hozir kasalxonada, jonlantirish bo'limida yotibdi, deyshidi stansiyadagilar.

Maqsud aka taksi tutib, kasalxonaga yetib bordi. Jonlantirish bo'limi eshigi oldida yig'lab o'tirgan yoshgina juvonni darrov tanidi:

— Egamberdiyeva?! Siz bu yerda nima qilyapsiz? Murodjonning ahvoli qanday?

— Assalomu alaykum, ustoz. Men rafiqasiman... Murod akam sizga bu haqda aytmaganmidilar? — juvon sobiq domlasining savollariga javob berayotib ham timmay yig'lardi. — Boshimizga falokat tushdi, ustoz... Murod akamning ko'zlari, buyraklari qattiq shikastlangan, o'ng ko'llari hamda oyoqlari singan... Ko'krak qafasi ezilib yurakka biroz jarohat yetgan, deyshiyapti. Boshlarining u yer-bu yeri shilingan. O'zlariga kelganmishlar, meni, bolalarni so'rabdi, lekin bizni ichkariga qo'yishmaypti...

Shundagina Maqsud aka sal naridagi o'rindiqda yig'lamsirab, qunishib o'tirgan ikki yosh bolani ko'rdi. Maqsud akaning xayolidan "Murodjonning farzandlari bo'lsa kerak, hali juda kichkina ekan... Xotinini ichkariga qo'yishmagan bo'lsa, ahvoli juda og'irlikman-a?", degan o'y o'tdi. — Mayli, kuyinmang, qizim. Hali otdek bo'lib ketadi, Xudo xohlasa. Men mana bu pulni Murodjon o'g'limdan olti oy avval zarurat uchun olgan edim... Bugun bir necha bor telefon qildim, go'shakni olmasdi. Stansiyaga borib bu voqeadan xabar topdim. Siz bu pulni olib qo'ying, — Maqsud aka shunday deb pul solingan konvertini juvonga tutqazdi.

— Rahmat, ustoz. Stansiyadagilar ham chop-chop qilib yurishibdi, hali zamon kursdosh o'rtloqlariyam kelib qolar...

— Shifokorlar nima deyshiyapti? Murodjon kimning nazoratida ekan, bilimadingizmi?

— Professor A'zamxo'jayevning... Donor topilsa, buyrakni iloji boricha tezroq almashtirish kerak, deyshiyapti. Murod akamning yaqin qarindoshlari deyarli yo'q, kimdan yordam so'rashni ham bilmayapman... — Murodjonning xotini o'pkasi to'lib bo'ng'rab yubordi.



Isitish mavsumida yong'in, chaqnash, is gazidan zaharlanish va boshqa turli ko'ngilsizliklarning oldini olish va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlari tegishli tashkilot va idoralar bilan hamkorlikda respublikamizning barcha hududlarida kun-u tun kuchaytirilgan tartibda targ'ibot-tashviqot tadbirlarini olib bormoqdalar.

## Aholi va hududlar xavfsizligini ta'minlash yo'lida

Soha xodimlari xonadonlar, qurilish obyektlari, tunda insonlar qoladigan maskanlar, savdo markazlari, ijtimoiy soha obyektlari va tadbirkorlik subyektlarida tabiiy va suyuqtilirilgan gazdan foydalanishda xavfsizlik qoidalarini hamda talablariga rioya etilishi, is gazidan zaharlanish, botulizm, gaz-havo ara-

lashmasining chaqnashi va boshqa yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz hodisalarining oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar o'tkazmoqda.

Abdulla NABIYEV,  
Yakkasaro tumani FVB boshlig'ining  
P va NB bo'yicha o'rinbosari, kapitan

## "Toshkent mexanika zavodi" aksiyadorlik jamiyati ogohlantiradi

Joriy yilning 15-noyabridan 15-dekabriga qadar "Yong'in xavfsizligi oyligi" munosabati bilan barchangizni ogohlikka chaqiramiz!

Har yili ob-havo sovuhi bilan isitish pechlaridan noto'g'ri foydalanish va loqaydlik sabab aholi xonadonlarida is gazidan zaharlanish va boshqa yong'in bilan bog'liq ko'ngilsiz holatlar ko'payadi. Achinarlisi, buning oqibatida insonlar qurbon bo'ladi. O'zimiz va yaqinlarimiz xavfsizligi uchun hushyor bo'laylik!

Asan URAZBAKOV,  
"Toshkent mexanika zavodi" AJ  
yong'in xavfsizligini ta'minlashni  
tashkil etish bo'linmasi  
katta inspektori, mayor

**Abdijalilova Zilolaxon Xikmatullayevnaning 15.00.01 — Dorn texnologiya-  
si ixtisosligi bo'yicha "Yuqori nafas yo'llarining motor funksiyasini sekretolitik  
va stimullovchi preparatlar texnologiyasini yaratish" mavzusidagi(farmatsevtika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Far.32.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 9-dekabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy.  
Tel/faks: (71) 256-37-38, e-mail: farmi@bcc.uz

**Toshmatov Elyor Sobirovichning 05.09.06 — Gidrotehnika va melioratsiya  
qurilishi va 01.02.04 — Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi ixtisosliklari bo'yicha "Asosni hisobga olgan holda gruntli to'g'onlarning kuchlanganlik-deformatsiya holatini baholash" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. T.10.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 10-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy.  
Tel/faks: (71) 237-09-45, 237-38-79; e-mail: admin@tiame.uz

**Sodiqov Mansur Kaxxorovichning 02.00.03 — Organik kimyo ixtisosligi bo'yicha "Atsetilen aminospirtlari efrillarining katalitik sintezi va xossalari" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.09.2020. K.82.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 13-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, A.Temur ko'chasi, 104-uy.  
Tel/faks: (98) 70-716-68-05, 70-716-68-11;  
e-mail: tvchdpi\_k.kengash@umail.uz

**Karabayeva Barno Bobir qizining 10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjima-shunoslik ixtisosligi bo'yicha "Ingliz va o'zbek tillarida ko'rish sezgisini ifodalovchi fe'llarning kognitiv-pragmatik xususiyatlari" mavzusidagi(filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 10-dekabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,  
Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-"A" uy.  
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu\_info@mail.ru

**Usmonova Shahodat Abdurahimovnaning 10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjima-shunoslik ixtisosligi bo'yicha "Mediadiskursda gazeta tili tendensiyalari(o'zbek va ingliz tillari misolida)" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 10-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,  
Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-"A" uy.  
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu\_info@mail.ru

**Gaipov Dilshod Jumabekovichning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Evristik metod yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faolligini ta'minlash mexanizmlari" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 11-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.  
Tel/faks: (61) 229-40-75; e-mail: nkspi-info@edu.uz

**Egamov Ilxomjon Urayimjonovichning 06.01.05 — Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Sug'oriladigan sharoitlarga mos hosildorligi va don sifati yuqori kuzgi yumshoq bug'doy navlarini yaratish, urug'chiligini tashkil etish" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/27.02.2020. Qx.42.02 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 3-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti.  
Tel/faks: (78) 150-62-84; e-mail: paxtauz@mail.ru

**Umarova Fotima Abduraximovnaning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Talabalarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida kiyimlarni loyihalash va modellash-tirishni o'rgatish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 11-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy.  
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

**Usmanov Ulug'bek Xusanovichning 15.00.01 — Dori texnologiyasi va 15.00.02 — Farmatsevtik kimyo va farmakognosiya ixtisosliklari bo'yicha "Tubulg'ibargli bo'yimodaron gullari asosida me'da-ichak yarasiga qarshi dori vositalari va biologik faol qo'shimchalar texnologiyasini ishlab chiqish va standartlash" mavzusidagi(farmatsevtika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Far.32.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 1-dekabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy.  
Tel/faks: (71) 256-37-38; e-mail: farmi@bcc.uz

Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning <http://himoya.bimm.uz> platformasi va ZOOM dasturi orqali onlayn (masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.

Gazetaning navbatdagi soni 15-dekabr kuni chiqadi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi akademik litseyi tomonidan 2019-yil 25-iyundagi qaroriga binoan Mamarajabova Zulfiya O'tkir qiziga berilgan L № 377342(ro'yxat raqami: 993) raqamli O'zbekiston Respublikasi akademik litseyi DIPLOMI va uning ilovasi yo'qolgani sababli  
**BEKOR QILINADI.**

Sergeli politexnika kasb-hunar kolleji tomonidan Davlat attestatsiya komissiyasining 2006-yil 30-iyundagi qaroriga binoan Israilov Ravshan Shuxratovichga berilgan K № 780573(ro'yxat raqami: 647) raqamli DIPLOM va uning ilovasi yo'qolgani sababli  
**BEKOR QILINADI.**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektorati va kasaba uyushmasi qo'mitasi katta o'qituvchi Charros Abdullayevaga onasi

**Yulduz aya SOTIVOLDIYEVANing**  
vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor qiladi.





**Hurmatli mushtariy!**  
2022-yil uchun  
obuna bo'lishni  
xohlasangiz quyidagi  
tashkilotlarga  
murojaat qiling.  
O'zlari kelib, obunani  
rasmiylashtirishadi.

To'lovni naqd pul,  
plastik karta yordamida  
yoki pul o'tkazish yo'li  
bilan amalga  
oshirishingiz mumkin.  
To'langanlik to'g'risida  
kvitansiya qo'lingizga  
tushishi bilan har oyda  
jurnalning yangi sonini  
olishingiz mumkin  
bo'ladi.

# Boshlang'ich ta'lim



## Obuna madaniyati nima?

Shu paytgacha o'qituvchilar turli gazeta va jurnallarga majburiy tarzda obuna qilinardi va bu hol norozilikka sabab bo'lar edi. Biroq endi vaziyat o'zgardi: majburiy obunaga qat'iy chek qo'yildi.

O'qituvchilar uchun o'z yo'nalishidan kelib chiqqan holda sifatli axborot tanlash imkoniyati paydo bo'ldi. Shubhasiz, orangizda biror ta'lim yo'nalishidagi nashrlarga obuna bo'lish istagida yurgan, ammo rasmiylashtirish tartibi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lmagan o'qituvchilar ham bo'lishi tabiiy. Chunki majburiylik obuna madaniyatini susaytirgandi.

**Obuna madaniyati, bu:**

- o'z ustida tinimsiz ishlash!
- yangi axborotlarga ehtiyoj!
- turli manbalarga, jumladan, ommaviy axborot vositalariga mehri munosabat!

- yaratgan yangiligi yoki boshqa fikrlari bo'lsa, muallif sifatida ishtirok etish!

**OAVdan foydalanish uchun:**

- obuna bo'lish tartibini bilish!
- obuna idoralaridan nashrni o'z vaqtida talab qilish!

«O'zbekiston pochta» AJning korxonalari telefon raqamlari

«Matbuot tarqatuvchi» AKning korxonalari telefon raqamlari




| № | Hududiy filiallar        | Telefon          | №  | Hududiy filiallar   | Telefon                       |
|---|--------------------------|------------------|----|---------------------|-------------------------------|
| 1 | Toshkent shahri filiali  | (0371) 233-73-56 | 8  | Xorazm filiali      | (0362) 228-51-71              |
| 2 | Andijon filiali          | (0374) 223-26-24 | 9  | Surxondaryo filiali | (0595) 501-01-95              |
| 3 | Qoraqalpog'iston filiali | (0361) 222-14-43 | 10 | Toshkent filiali    | (0371) 268-22-56              |
| 4 | Qashqadaryo filiali      | (0375) 221-04-02 | 11 | Samarqand filiali   | (0366) 229-49-27<br>229-51-16 |
| 5 | Jizzax pochta            | (90) 538-02-69   | 12 | Farg'ona filiali    | (0373) 244-47-79              |
| 6 | Namangan filiali         | (0369) 233-03-67 | 13 | Sirdaryo filiali    | (0595) 510-01-94              |
| 7 | Buxoro filiali           | (0365) 223-48-93 | 14 | Navoiy filiali      | (91) 335-66-62                |

| № | Hududiy filiallar             | Telefon          | №  | Hududiy filiallar    | Telefon                       |
|---|-------------------------------|------------------|----|----------------------|-------------------------------|
| 1 | Toshkent shahri               | (0371) 233-67-98 | 8  | Xorazm viloyati      | (0362) 227-48-55              |
| 2 | Andijon viloyati              | (0374) 223-82-13 | 9  | Surxondaryo viloyati | (0378) 221-91-18              |
| 3 | Qoraqalpog'iston Respublikasi | (0361) 222-88-63 | 10 | Toshkent viloyati    | (0371) 199-76-66              |
| 4 | Qashqadaryo viloyati          | (0375) 225-40-27 | 11 | Samarqand viloyati   | (0366) 234-22-53              |
| 5 | Jizzax viloyati               | (0372) 222-40-01 | 12 | Farg'ona viloyati    | (0373) 244-50-77              |
| 6 | Namangan viloyati             | (0369) 239-10-88 | 13 | Sirdaryo viloyati    | (0367) 225-11-22<br>225-11-44 |
| 7 | Buxoro viloyati               | (0365) 221-56-90 | 14 | Navoiy viloyati      | (0363) 223-26-86              |

Yakka tartibdagi obunachilar uchun nashr indeksi: 802  
Korxona va tashkilotlar uchun nashr indeksi: 803

Manzil: 100000, Toshkent sh, Matbuotchilar-32.  
Tel.: 71 233-72-28, 236-74-23.  
E-mail: talim-uz@xtv.uz/Veb-sayt: bt-jurnal.uz

"Maktabda biologiya",  
"Maktabda kimyo" va  
"Maktabda geografiya"  
jurnallari barcha turda-  
gi ta'lim muassasala-  
ridagi biologiya,  
geografiya va kimyo  
fanlari o'qituvchilari,  
metodistlari, to'g'arak  
rahbarlariga ko'mak-  
lashish uchun chop et-  
layotgan nashrlardir.



**OBUNA BO'LISHNI  
UNUTMADINGIZMI?**

Turekeyeva Alfiya Jienbe-  
kovnaning 13.00.01 — Pedagogika  
nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar  
tarixi ixtisosligi bo'yicha "Malaka  
oshirish tizimini ilg'or xorijiy taj-  
ribalar asosida takomillashtirish  
mexanizmlari" mavzusidagi(pe-  
dagogika fanlari bo'yicha) falsafa  
doktori(PhD) dissertatsiyasining  
himoyasi Nukus davlat pedagogi-  
ka instituti huzuridagi ilmiy dara-  
jalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.  
Ped.34.01 raqamli ilmiy kengash-  
ning 2021-yil 11-dekabr kuni soat  
14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230105, Nukus shahri,  
P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.  
Tel/faks: (61) 229-40-75;  
e-mail: nkspi-info@edu.uz

## Marifat

### TA'SIS ETUVCHILAR:


O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi,  
O'zbekiston oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,  
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba  
uyushmasi Respublika kengashi.

### Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Indeks: 149, 150, V-4942. Tiraji 6986.  
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,  
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

### TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;  
kotihiyat — (71) 233-99-15;  
reklama va marketing bo'limi —  
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Ma'rifat" dan  
materiallarni ko'chirib  
bosish tahririyat  
ruxsati bilan amalga  
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan  
qo'lyozmalar taqiriz  
qilinmaydi va muallifga  
qaytarilmaydi.

### MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,  
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.  
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.  
Nabatchi muharrir: Humoyun Quvondiqov.  
Nabatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.